ао ) а о ар а а а ( ор ) ора . а а а а а а а ар  
( о р а ор ар а ор ар) а а о а а а а ар ар о - а а  
ара а а а . а , а а а а ар а а а а .  
ар а а о - а а а а а р а . аа ,  
а а ар а р а а ар а ар ара а ар а а ,  
а а а ар а ар а о а р а , о , ар а а а а р а о ар а  
а а а а а а а а . аа о о а , ар о ар а а -  
о ар а а - а ар а а а ор ар р, а р о  
о ора, о о а ар а ар. р , р а а ар а ар а о а  
ор а а а о а о а а а ( ) а а а ар . а  
а а а ар а а а ар а а . а о - а -  
о а о ар а а о а ? . а а о ар р а ар а а а  
р а . а а а а а о ра а а а о а , а а а  
а р а а ор о а а ар а аро ар , а ар а а а р ,  
а а о ар а а .  
о а ар ра а а а а ар а ра ар ра а о а а ар ар а  
о а ар ра а о а аро а а а о ра а а а а ар а а , а р а  
ра о а а а а а р. а ар р , о а а а а а а ар о а а  
а ар а а , р а а ар а а а а ар а а ар а а а .  
а а, а а а о а а ара а а о , ро а о р а ,  
а а а о а о а ра . ар а ар о а ро а а а , а а  
а ар а а а а о а а а а о о ра , а а а р а  
ра . ар а о ар а, а ора ао а а а ра а а а а ар а  
р , ара ар о а ар р. ар а а а а о о ар  
ор а а аа а-а, а о а а ар а а а о а ар р а а  
р а . о ра а ра а, аро ар ар ра - ара а а о а а  
а а р р , р а ро а . а о р а а  
ро а о а а а р а а а а о а . о о о  
ор ор , о а а а о . а р а ра, о ра а о а о а  
р а , а о ра а а , а а р . а , о ра  
ара а о а о а р ар а а а ар ( а о о - ро а  
а а а-а) о а о а , а а о , ро р а а о р

ра а , ро а о ар , о о . ар а  
о а р а - р а аа о а р а а а о ,  
о о а а р р а а а аррар р.  
1991 31 а а а о а а а а о ар  
р аё о о а . а а а а о  
а р а о о . о а о о а ар а о а ара  
р а а а а р а о . а арор а 1991 29 а р а  
а а а а р р о а а а о о а  
ро а а а . ар а а а а , а а а а р ,  
а а а а о а а , о а ар а ар а а р а  
ара ар а р.  
а а а о ао ро о а ао а  
ара а а , а а а а ар а а а р а ра . а а р а  
о арор ар а а а а ар р а а а о а ра а ра .  
а о а ар а а а ар ар р а а ар а , а а о ар  
ор а ар а а р , ар а а ар а а а а а ар о о а .  
а о ар а ар а , р о о а , а а а а а ар а а а а,  
о о а , о р а ар , о ра о а ара а а ар  
а а а . ар а ар а а а а ара о а а ар а  
а о а.

## АМИР ТЕМУР ТУЗУКЛАРИДА ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ ФАЛСАФАСИ

Мухаммадиева О.Н., Тожиев Х.

*Мен Самарқандда тугилганман, менга Амир Темуր буюк даҳосини акс эттирувчи, таровати ва муҳташамлигини тавсифлашга сўз ожизлик қиладиган обидалар юртида яшаб, вояга етиш nasib этди. Илк болалик кезларимда жаҳон тараққиётига ҳисса қўшган тарихий обидалар, бетақрор маданиятнинг узоқ ва жўшқин даври бунёдкорлиги нафасидан баҳра олиб яшадим.*

*Маънавий бойлик, ўй хаёлларнинг софлиги ва ахлоқийлиги, нафислик, Ўзбекистон халқининг яратувчилик табиати асрлар давомида Гўри Амир, Регистон, Шоҳизинда, Тоҳи Заргарон, Бибихоним мажсиди, Улугбек расадхонаси ва бошқа қўнлаб жаҳон аҳамиятига молик дурдоналар нафосати таъсирида шаклланди.*

*И.Каримов*

## OILA VA MAHALLANING YOT TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDAGI TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Mamarajabov G'.A., Rahmatullayev B.Ch.**  
Termiz davlat universiteti

Yangi jamiyat bunyodkori boʻlmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom maʼnoda oʻzini-oʻzi boshqarish idorasiga aylantirishda katta hissa qoʻshib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yigʻinlarining diniy maʼrifat va maʼnaviy-axloqiy masalalar boʻyicha masahatchilarining ijobiy taʼsiri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar koʻngliga yoʻl topib, ularning dardu tashvishiga sherik boʻlib, oʻz vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, toʻgʻri va oʻrinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorumizda tinchlik va osoyishtalik, oʻzaro mehr-oqibat tuygʻulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. OʻYuksak maʼrifatli, har tamonlama salohiyatli avlodni tarbiyalashdek muqaddas vazifa oldimizda turibdi. Barkamol insonni voyaga yetkazish uchun, eng avvalo, oila, mahalla, maktab, butkul jamiyat va davlatning uzviy hamkorligini yuqori pogʻonaga koʻtarish lozim. Bizning farzandlarimiz nihoyatda isteʼdodli, aqlu zakovat bobida hech kimdan qolishmaydi. Ularning iqtidorini qadrlash, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, Vatanning mard va fidoiy farzandlari etib tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratib berish har birimizning sharaflari burchimizdir<sup>403</sup>. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan oʻziga munosib oʻrin topishida bu fidoiy va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol oʻynayotganini hurmat bilan eʼtirof etishimiz lozim.

Oiladagi mehr-muhabbat muhiti. Ushbu tuygʻudan mahrum boʻlgan kishi oʻz yaqinlarini, vatandoshlarini, Vatani hurmat qilishga qodir boʻlmaydi, odamlarga yaxshilik qila olmaydi. Oiladagi mehr-muhabbat va samimiyat, oila aʼzolarining bir-biriga eʼtiborliliigi va gʻamxoʻrligi bolalar ruhiyatiga kuchli taʼsir qiladi, bolaning his-tuygʻulari namoyon boʻlishi, uning maʼnaviy ehtiyojlari shakllanishi va amalga oshishi uchun keng imkoniyatlar beradi. Ota-onalar hayotning muhim ahamiyatli holatlarida bolalarga yolgʻon soʻzlamasligi kerak. Ota-onalar oilaviy munosabatlarning sofliigiga eʼtiborni qaratishlari zarur. Demak, oila bir qancha funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy

<sup>403</sup> Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yodida. 1998. 78-b.

institut hisoblanadi. Bu funksiyalar ichida muayyan bir mafkura doirasida mustahkamlangan gʻoyalar, qadriyatlar, gʻoyalar tizimi asosida dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi ham bor.

Yaxshi farzandlar otaning izidan boradi "Ot oʻrnini toy bosar", doʻstlari, qadrdonlarini hurmat qiladi, ukalarini tarbiyalaydi, qarindosh-urugʻlariga mehr-oqibatli boʻladi. Bular ota mehri va umid bilan qalbiga ekan maʼnaviyat urugʻining yangi mevalaridir. Ota qoldirgan yaxshi nomni farzandlari axloqi va odobi, halol mehnati, el oʻrtasidagi hurmati, obroʻ-eʼtibori bilan ulugʻaydilar, ruhini shod qiladilar. "Odam oʻlganidan keyin ham uning foydasiga yozilib turadigan amallar bor, deyiladi hadislarda. Bulardan biri komil farzanddir".

Yosh avlodning maʼnaviy tarbiyasida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va oʻtmish ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda roʻy berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojoʻya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy boʻshliq tufayli sodir boʻlmoqda». Shu oʻrinda nega aynan gʻanimlarimiz hali hayotiy tajribaga ega boʻlmagan, oq-qorani tanib ulgurmagani yoshlarga qaratmoqda degan savol tugʻiladi. Chunki aynan yoshlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda asosiy tayanch kuch. OʻYurtimizga qarshi bunday tajovuz va qoʻporuvchilik hurujlarini tashkil qilish niyati bilan yurgan kuchlarning tuzogʻiga tushganlarning askariyati birinchi navbatda oilada ham, maktabda ham jiddiy taʼdim-tarbiya olmagan yoshlardir. Ular ijobiy maʼnodagi vorislik, yaʼni avloddan avlodga oʻtib boradigan ibratli anʼanalardan yiroq, muhiti nosogʻdom boʻlgan oilalarda oʻsgan, omadi yurishmagan, hayotda oʻz oʻrnini topmagan, jamiyat eʼtiboridan chetda qolgan oʻsmirlardir<sup>404</sup>.

Hozirgi kunda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, oʻz kelajagini oʻylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas.

«Yuksak maʼnaviyat oʻ yengilmas kuch» asarda mustaqillik davrida oila maʼnaviy muhitini yaxshilash, azaliy qadriyatimiz boʻlgan mahallaning ijtimoiy maqomini koʻtarish, taʼdim-tarbiya sohasida oʻtkazilayotgan tub islohotlar haqida eslab oʻtish bilan bir qatorda bu sohalarning bugungi dolzarb muamolari haqida batafsil mulohazalar bildiriladi. OʻShuni unutmaslik kerakki,-deb yozadi Prezident,-kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Oʻ Shunday ekan, oʻbu sohada yuzaki, rasmiy yondoshuvlarga, puxta oʻylanmagan ishlarga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Oʻ

Taʼdim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masaladir. Taʼdim va tarbiya bir-biridan ajratib boʻlmaydigan uygʻunlikda olib borilishi lozim. Taʼdim oʻ tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir.

Yoshlarimiz ongini zaharlashga qaratilgan keskin biryozlama, radikal qarashlarning, anʼanalimizga mutlaqo yot boʻlgan ekstremistik va terroristik gʻoyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartaraf etuvchi yana bir qudratli vosita - bu xalq qadriyatlarini tiklash va milliy oʻzlikni anglash hissini uygʻotishdir.

Biz maʼnaviy qadriyatlarni tiklashni milliy oʻzlikni anglashdan maʼnaviy sarchashmalarimizga, uning ildizlariga qaytishdan iborat tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimizning maʼnaviy qadriyatlari, madaniy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli maʼnaviyat manbai boʻlib xizmat qilgan. Shunday ekan, aytishimiz mumkinki, ushbu qadriyatlar kishilar, xususan yoshlarimizni oʻz Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir<sup>405</sup>.

Yoshlarimizning ongiga yot gʻoyalar kirib kelishiga qarshi qudratli vosita sifatida bunyodkor milliy-diniy qadriyatlarimizdir.

Insoniyat tarixi oʻ XXI asrga qadam qoʻydi. XX asr tarix bisotidan oʻrin oldi. Mantiqan insoniyat oʻtmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir boʻlishiga yoʻl qoʻymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zahiralari taqchiligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros boʻlib oʻtdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi oʻdlaroq, xavf-xatarlar roʻyxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, maʼnaviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, gʻarbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini koʻpaytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan koʻp boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-uchta bosh oʻsib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini koʻrsatadi.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengishi uchun oʻzida ogohlik, mafkuraviy xavfsizlik, toʻkislik, jangovarlik, safarbarlik, umummilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlarga ega boʻlishi kerak. Buning uchun milliy istiqloq mafkurasining yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzgunchi gʻoyalar mohiyatini fosh qilishga qaratilgan targʻibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish, jaholatga qarshi maʼrifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

<sup>404</sup> Karimov I. A. Tinchlik va xavfsizligimiz oʻz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qatʼiy irodamizga bogʻliq. Asarlar, 126jild. 6 T.:«Oʻzbekiston», 2004. 268-b

<sup>405</sup> Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. OʻT: OʻMaʼnaviyat, 2008. -B. 60

O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'da erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani o'zbunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

## ТАЛАБА ЁШЛАРДА СИЁСИЙ, ХУҚУҚИЙ ВА АҲЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Хайитова Ф.А.

миз davlat universiteti



## MILLIY MAFKURA VA YOSHLAR

**Sunatov D.H., Omonov J.**

Qarshi davlat universiteti

Maʼlumki, demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishda aholi, jumladan, yoshlarning faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda esa, mafkuraviy omil muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan, xalqimizni birlashtiradigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini oʻzida mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish va uni yoshlar ongiga singdirish mafkuraviy sohadagi dolzarb vazifalardan boʻlib qolmoqda. Prezident I.A.Karimov taʼkidlaganidek, oʻltdimizga qoʻyilgan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos boʻlish, gʻoyaviy boʻshliq paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik, begona va yot gʻoyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama

barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda.<sup>406</sup>

Albatta, milliy mafkuraning shakllanishi va rivojlanishini qandaydir muayyan tarixiy vaqt bilan chegaralash qiyin. Chunki, mafkuraviy soha ham ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, mafkuraviy faoliyat ham uzluksiz jarayon ekanligini anglatadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, 2006-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidenti «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etilib, unga quyidagi vazifalar belgilandi:

Milliy g'oya va mafkura bilan bog'liq muammolarni, mafkuraviy jarayonlarni tahlil etish va baholash, ustivor yo'nalishlarni aniqlash, ularning aholi qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga zid g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

amalgaga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahliliy materiallarning xulosalarini OAV orqali jamoatchilikka yetkazish<sup>407</sup>;

ma'naviyatning, milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari va bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ'ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish.

Ko'rinadiki, «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» qaror yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega bo'lib, mazkur vazifalarni bajarish esa milliy ziyolilarga, ayniqsa, soha vakillariga ulkan ma'xuliyat yuklaydi.

Ushbu nuqtai nazardan, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va unda milliy mafkuraning tutgan o'rni va rolini tahlil-tadqiq etish davrimizning dolzarb muammolariga kiradi va bu quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- aholining har qaysi toifasi va qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mafkuraviy faoliyat asosida ma'naviy muhitni yuksaltirish diqqatimiz markazida turishi kerak. Bu esa, tabiiyki, alohida ijtimoiy-demografik guruh bo'lgan yoshlarga ham bevosita taaluqlidir. Agar, mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, yuqoridagi masalaning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik ekanligini ko'rish mumkin.

- jamiyatimizni isloh etishning ma'naviy va mafkura sohasidagi eng asosiy vazifasi milliy qadriyatlarimizni tiklash, uni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish, o'zligimizni anglash, milliy mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizni soxtalashtirishga yo'l qo'ymaslik, uning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va yoshlarga ta'zirchanligini kuchaytirishdir.

Ijtimoiy-tarixiy amaliyot va nazariy tahlillar asosida aytilish mumkinki, milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan har qanday davlat o'tish davrining murakkab qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun, albatta, uning tub maqsadlari va manfaatlarini ifodalaydigan mafkurasi ham mavjud bo'lmog'i lozim. Xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar qaysi jamiyatda yashashidan qat'iy nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir oliy ideallarga ergashib ish ko'rish, faoliyat yurgizishi kerak. Ana shularni hisobga olgan holda Prezidentimiz Islom Karimov: «Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqbol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiiq etishdir», degan edi.<sup>408</sup>

Mustaqil O'zbekiston mafkurasi jamiyatimizning siyosiy va iqtisodiy sohalarda bo'lgani kabi ma'naviy hayotimiz rivojiga ham aniq maqsad va yo'nalish bermog'i lozim. Ma'naviyat mustaqillikning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ma'naviyatning umrboqiyliigi, uning inson, xalq va millatning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrat manbai ekanligi barchaga, ayon. Ma'naviyat bo'lmagan joyda erkinlik ham, adolat ham bo'lmaydi. «Ma'naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarni qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirlarini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma'naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'chab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olam».<sup>409</sup>

Ma'lumki, mafkura inson ongiga uning qalbiga yo'l ochib, dunyoqarashiga ta'zir etuvchi qudratli g'oyaviy kuchdir. Shuning uchun ham, hozirgi vaqtda global miqyosda turlicha maqsad-manfaatlarini ifoda etuvchi reaksiyon va progressiv mafkuralar o'rtasidagi kurashlar har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Prezidentimiz ogohlantirganidek, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan xavfliroqdir. Demak, har xil mafkuralarning ta'ziriga berilmasligi uchun yoshlar mafkuraviy yetuklikka ega bo'lishi zarur. Chunki, og'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz yoshlarining tarbiyasini oqilona tashkil etish davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda: 1997-yil avgust oyida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq 9-sessiyasida qabul

<sup>406</sup> . . . . ., 2000. 3-

<sup>407</sup> . . . . ., 2006. 68-

<sup>408</sup> . . . . ., 1993. 9-

<sup>409</sup> . . . . ., 1996. 71-

qilingan o'Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'da hamda O'zbekiston Respublikasining o'Ta'dim to'g'risida o'gi qonun (1997-yil) yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Shunga ko'ra, o'Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.<sup>410</sup>

Xulosa sifatida aytganda, milliy mafkuraga asoslangan ma'naviy tarbiya aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olingan holda olib borilsa, mafkuraviy tarbiya o'z samarasini namoyon etadi.

## YOSHLAR TARBIYASIDA ESTETIK DID MASALASI

Sunatov D.H.

Qarshi davlat universiteti

O'zbekistonda har tomonlama rivojlangan, yetuk, estetik madaniyatli shaxsni tarbiyalash, barkamol inson qilib voyaga yetkazish, bilimli, malakali, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni kamol toptirish davlatimiz siyosatining ustuvor masalasidir. Bu jihatlar bevosita xalqimizning o'tmishini chuqur idrok etish, milliy qadriyatlarni e'zozlash, jamiyatda demokratik tamoyillarni mustahkamlash, zamon bilan hamnafas yashashni talab etadi. Har bir shaxsning estetik madaniyatida milliylik va umuminsoniylikning birligini ta'minlash va unga erishish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Zero, «ma'naviy barkamol inson va jamiyat estetik qadriyatlarga befarq qaramaydi, aksincha, ularning rivojlanishi va ravnaq topishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Estetik madaniyati, estetik didi past inson hech qachon ma'naviylikning cho'qqisiga chiqa olmaydi».<sup>1</sup>

Olim A.Sher "Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, subyektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada o' haqiqatga, keyingisida o'ezgulikka, uchinchisida o' go-zallikka munosabatini uchratamiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Fahm o' aqliy, farosat o'axloqiy, did o'estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy-tug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi.<sup>1</sup> deb ta'kidlaydi. Demak fahm-farosat, did o'zaro uzviy aloqador bo'lib tarbiya jarayonida shakllanib boradi. Did o' insonning aqliy, axloqiy va madaniy darajasiga qarab hayotiy voqealarga, san'at asarlariga va kishilarning xulq-atvoriga estetik baho berish qobiliyatidir. Did muammosining murakkabligi shundaki, har bir kishining voqelikka estetik baho berishda (tafakkur ishtirokisiz bo'lmasa ham) ko'proq hissiy tomonlar hal qiluvchi rol o'ynaydi<sup>2</sup>.

Tadqiqotchilar estetik didning darajalari haqida to'xtalganda nafasni zavqlanish uchun emas, balki o'zining boshqalardan madaniyatligini, o'qimishligini ko'rsatish uchun bir vosita deb biladigan ikkinchi darajali-estetlar haqida ta'kidlashadi. Estetik ong tizimida o'ziga xos o'rin tutuvchi estetik did eng nozik, ziddiyatli, murakkab shuningdek qiziqarli va dolzarb masalalardandir. Kant ta'kidlagani kabi did haqida bahslashish ham mumkin va aksincha baxslashmaslik ham mumkin. Shuning uchun uning atrofida bahs bugun ham davom etayotir. Ammo o'mmaviy madaniyat o' deb nomlangan turfa rangda, turfa ohangda kirib kelayotgan ayrim san'at asarlari yoshlar didining tubanlashuviga olib kelishi hech kimga sir emas. o'Ommaviy madaniyat o' o'rtacha o' iste'molchiga mo'ljallangan bo'lib, tijorat, moddiy foyda ko'rish maqsadida original ma'naviy mahsulotni ko'paytirish va tarqatish imkoniyatlarini anglatadi.<sup>3</sup>

o'Ommaviy madaniyat o' yoshi, ijtimoiy va milliy toifasi jihatidan o'z iste'molchisini aniq belgilab oladi, shunga mos badiiy-estetik usullar va qadriyatlar tanlaydi, moddiy manfaat yo'lida turli vositalarni ishga soladi. Buning natijasida go-zallikka loqaydlik yoki uni buzib idrok etish, pastkashlikdan zavqlanish paydo bo'ladi. Binobarin, o'estetik did insonning fikr-mulohazalarida, xulq-atvorlarida, xatti-harakatlarida, moddiy va ma'naviy ijodi mahsulotlarida o'z ifodasini topadi<sup>1</sup>, did bahosining umumiy yo'nalishini esa insonning ideallari va dunyoqarashi belgilaydi. Shunday ekan, did muammosi shaxsning kamoloti bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning estetik madaniyati tarkibini tashkil qiladi.

Mamlakatimizning 63 foizini tashkil qiladigan yoshlarni o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom dunyoqarashga, estetik did, boy ma'naviyatga ega, har qanday mafkuraviy

<sup>410</sup>

... 1997. 24-25-

<sup>1</sup>Umarov E, Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. o'Toshkent: Sharq, 2005. o' 10 b.

<sup>2</sup>Abdulla Sher, Bahodir Husanov Estetika/- Toshkent O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2010 94 b.

<sup>3</sup>Mahmudov T. Estetik did haqida. T., O'zbekiston, 1964. o' 23.

... o' 6 ... «

... 2002. - .483

<sup>1</sup>Falsafa. Qomusiy lugat.-Toshkent: Sharq, 2004. o' 464 b.

tazōiyiq va maʼnaviy tahdidlarga zarba berishga tayyor etib tarbiyalash vazifasi dolzarb boʻlib hisoblanadi. Shuning uchun Prezidentimiz I.A.Karimov «Insonning yuksalishida maʼnaviyat olamining qanday taʼsir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, maʼnaviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish, el-yurtimiz, keng jamoatchilik eʼtiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish, kelajak avlodimizni maʼnaviy sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash bilan bogʻliq vazifalarni aniq belgilab olish»<sup>2</sup>, zarurligini koʻrsatib oʻtadilar. Yoshlarda estetik didni shakllantirish, ularning maʼnaviy olamida boʻshliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sogʻlom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini shakllantirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Estetik did shaxsning sanʼat asarlarini goʻzallik jihatidan baholashda muhim rol oʻynaydigan koʻrsatkichlardan biridir. Shaxsning estetik didi uning haqiqiy badiiy asardan zavqlanish va xunuklik va tubanlikka tanqidiy munosabati, shuningdek, mehnat faoliyatida goʻzallikni idrok etish va yaratish jarayonida koʻzga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan shaxsda estetik didni shakllantirish uchun uni tizimli olib borish yaʼni, ijodiy faoliyatga yoʻnaltirilgan layoqat va qobiliyatlarni rivojlantirish ham taqozo etiladi. Bu esa insonda ijodkorlik, bunyodkorlik fazilatlarini yuzaga chiqaradi.

Estetik did insonni oʻrab turgan muhit orqali shakllanadi. Inson goʻzal buyumlar va narsalar olamida yashasa, gʻoyaviy-estetik jihatdan yetuk badiiy asarlar bilan muloqotda boʻlsa, goʻzallikdan zavqlanishni oʻrganadi. Shunday ekan mavjud texnik imkoniyatlardan, audio-videoroliklar, multimedia kabi zamonaviy vositalardan maqsadli va unumli foydalanish, odamlarda atrofga daxldorlik, bunyodkorlik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga eʼtibor har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jamiyat madaniy muhitini barqarorlashtirish uchun badiiy-estetik muhitni yuzaga keltirish va rivojlantirishda nafaqat ijtimoiy hayotning yaxlitligi, shu bilan birga, har bir insonning estetik qobiliyatlarini shakllantirish, uning jamiyat estetik qadriyatlarini koʻpaytirishdagi faolligini taʼminlash muhim ijtimoiy vazifa sanaladi.

Estetik did har kimda har xil boʻlishini, unda subyektiv mushohada kuchli ekanini yaxshi bilamiz. Ayni paytda shuni ham nazarda tutish lozimki, did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u ham muayyan nisbiylik tabiatiga ega. Tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, uning toʻrt xil darajasi haqida fikr yuritish mumkin, bu darajalar odamlarning mavqei, saviyasi, madaniylik toifasi bilan bogʻliq. Birinchisi, estetik obyektning qanday boʻlsa, shundayligicha, aniq bir reallik tarzida idrok etuvchi subyektiv fikri oʻz, biror obyektning hamma zoʻr desa, zoʻr ekan deb qaraydigan faqat joʻn idrok etishga asoslangan did. Ikkinchisi, uning aksi oʻ nafosatni zavqlanish uchun emas, balki oʻzining boshqalardan madaniyatligini, oʻqimishligini koʻrsatish uchun bir vosita deb biladigan, zavqlanishni murakkab tahlil bilan almashtiradigan did egalari. Ularni odatda, nafosatbozlar-estetlar deb ataymiz. Uchinchisi, bejandorlikdan, yaraqlab turadigan narsa-hodisalardan hayratlanadigan, modaparast did egasi. Toʻrtinchisi, milliy va umumbashariy estetik qadriyatlardan zavqlanadigan, ularni, baholay oladigan, badiiy soddalikni anglay biladigan kishilar didi.

Demak, haqiqiy sanʼat asarlari, inson estetik didini rivojlantirish, axloqini poklantirishga xizmat qiladi. Hayotda estetik tasavvur va tuygʻulardan maʼlum darajada xabardor, adabiyot va sanʼatdan muayyan bilimga ega, lekin xulq-atvori axloqiy talabga javob bermaydiganlar uchrab turishi ehtimoldan yiroq emas. Va, aksincha, axloqan yuksak, lekin estetik did-farosati va qarashlari oʻta soddaga yoki rivoj topmaganlar ham yoʻq emas. Axloq va nafosat inson maʼnaviy olami va faoliyatining ikki qirrasidir. Shuning uchun shaxsda sogʻlom estetik didni, sanʼatni tushunish qobiliyatini tarbiyalash, undan maʼnaviy bahra olish imkoniyatlarini kengaytirish axloqiy tarbiya bilan uygʻun olib borilishiga katta ehtiyoj sezilmoqda. Bugungi maʼnaviy-madaniy islohotlar ana shu maqsadga qaratilgan.

Maʼlumki yoshlarning estetik didi kundalik amaliyotda, jamoat va mehnat amaliyotida, xilma-xil ijtimoiy-tarixiy omillar taʼsirida shakllanib, rivojlanib boradi. Estetik faoliyatning ham subyekt, ham obyekt hisoblangan shaxsning estetik ehtiyoji va didi u mansub millatning tarixiy shakllangan anʼana va mezonlari, shuningdek, oʻziga xos tabiiy-hududiy, geografik va ijtimoiy hayot sharoitlariga bogʻliq boʻladi. Bugun globallashuv jarayonida esa internet va televideniyaning yoshlar maʼnaviyati, didiga taʼsir kuchi ortib bormoqda. Mana shu oʻzgarib borayotgan jamiyatda kompyuter, internet, uyali aloqa vositalari va boshqa zamonaviy texnika-texnologiyalarni rivojlanib, takomillashib borishi natijasida, yoshlarimiz zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, ulardan samarali foydalanish sirlarini oʻrganib oʻz bilim salohiyatlarini oshirib bormoqdalar.

Keyingi yillarda respublikamizda xalqaro tarmoqdan foydalanuvchilar soni bir necha barobarga oshdi. Xususan, 2011-yil iyul oyi holatiga koʻra, 7,7 mln.ni (shundan 4,27 mln.i mobil internet foydalanuvchisi) tashkil etdi, bunda har 1000 ta odamga-261 ta foydalanuvchi toʻgʻri keladi.<sup>1</sup> Albatta, bu foydalanuvchilar auditoriyasida yoshlar ham mavjud. Bugungi kunda dunyo boʻylab oʻz manfaatlarini keng yoyishning eng maqbul usuli - axborot xurujlari boʻlsa, eng samarali vosita-axborot tizimlari va vositalari hisoblanadi. Bu yerda asosiy axborot isteʼmolchilari

<sup>2</sup>Karimov I.A Yuksak maʼnaviyat oʻ yengilmas kuch. o Tashkent: Maʼnaviyat, 2008. o 16-17 b.

<sup>1</sup> 2011 . www.aci.uz.

sifatida yoshlar namoyon bo'ladi. Ularning ongini va dunyoqarashini yot mazmundagi g'oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma'dumotlar Internet kontentining katta qismini tashkil etadi. Turli ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, tanishuv saytlarining faoliyat yuritishi yoshlarni o'ziga tezda jalb qiladi.

Bugungi kunda o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingga yaqin, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod, 12% pornografik xarakterga ega saytlar mavjud, 42% bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushmoqda, 49% kompyuter o'yinlari zo'ravonlik va yovuzlik ruhida, 41% o'ta jangari (beshavqat urushlar, o'ldirishlar, otishmalar, portlashlar va hokazo) ekanligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shunday ekan, milliy tarmoqda yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning dunyoqarashi, qiziqishlaridan kelib chiqib, bevosita yosh avlod manfaatlarini va muammolarini qamrab oluvchi ma'nan mazmunli, yoshlarda estetik did va dunyoqarashni shakllantirishga hissa qo'shadigan zamonaviy mavzulardan iborat internet saytlari yaratish nihoyatda muhimdir.

Estetik did tarbiyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o'ynaydi, uning asosiy vositalari sifatida bugun san'at bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari va dizayn ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu vositalardan unumli foydalanish jamiyat estetik didining rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida e'tirof etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli estetik did tarbiyasi har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, mustaqil diyorimizda xalqimizning tenglar ichida teng bo'lib, jahonga rosmana chiqishi uchun estetik did tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi bugungi davr talabidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki faqat yuksak estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyoni, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

## ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АСАРЛАРИ – БОЙ МАЪНАВИЙ МЕРОС

Ҳамроева Н.

Эстетик дид тарбиyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o'ynaydi, uning asosiy vositalari sifatida bugun san'at bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari va dizayn ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu vositalardan unumli foydalanish jamiyat estetik didining rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida e'tirof etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli estetik did tarbiyasi har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, mustaqil diyorimizda xalqimizning tenglar ichida teng bo'lib, jahonga rosmana chiqishi uchun estetik did tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi bugungi davr talabidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki faqat yuksak estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyoni, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

ö ( )

-(1441-1501).

(1394-1449)-

ö, ö, ö, ö, ö

(1483-1530) -

ö, ö, ö, ö, ö, ö, ö

**ТАРМИТА-ТЕРМИЗ (ОТА)НИНГ КУШОН ДАВРИ ХУНАРМАНДЧИЛИГИ**  
**Норқобилов Музаффар Жумаевич**

«

»

« ?»

( - )

( ), ( 2, ( ), ( ), ( ), ( ), ( )

350

## YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY MAFKURA MASALASI

Sunatov D.H., Hamrayeva U.

Qarshi davlat universiteti

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz aʼzolarining dunyoqarashi, fikrlash tarzida tub oʻzgarishlar roʻy berdi. Demokratik davlat, fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishda aholi, jumladan, yoshlarning faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda esa, mafkuraviy omil muhim oʻrin tutadi. Shu jihatdan, xalqimizni birlashtiradigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini oʻzida mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish va uni yoshlar ongiga singdirish mafkuraviy sohadagi dolzarb vazifalardan boʻlib qolmoqda. Prezident I.A.Karimov taʼkidlaganidek, "Oldimizga qoʻyilgan olijanob maqsad-muddalarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos boʻlish, gʻoyaviy boʻshliq paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik, begona va yot gʻoyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda".<sup>411</sup>

Milliy mafkuraning shakllanish jarayonini tahlil qilish jamiyatda biron bir gʻoyaning toʻgʻri, ilmiy va hayotiylikiga ishonch hosil qilish oʻz-oʻzidan roʻy bermasligini koʻrsatadi. Mafkuraga ishonch uygʻotish, unda aks etgan gʻoyalar taʼsirida odamlarni safarbar etish funksiyasi muayyan shaxslarning faoliyati orqali roʻyobga chiqadi. Chunki, ishontirmoq oʻ kishilarning ruhiyati, kayfiyati, hissiy kechinmalari, qalbi va shuuriga taʼsir qilmoqdadir. Bu vazifani amalga oshiruvchi kishilardan yuksak insoniy fazilatlar, shu gʻoya yoʻlida fidoiylik, bilim, malaka, nutq mahorati talab etiladi.

Albatta, milliy mafkuraning shakllanishi va rivojlanishini qandaydir muayyan tarixiy vaqt bilan chegaralash qiyin. Chunki, mafkuraviy soha ham ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan biridir. Bu esa oʻz navbatida, mafkuraviy faoliyat ham uzluksiz jarayon ekanligini anglatadi.

Ana shundan kelib chiqqan holda, 2006-yil 25-avgustda Oʻzbekiston Prezidenti oʻMilliy gʻoya targʻiboti va maʼnaviy ishlar samaradorligini oshirish toʻgʻrisida oʻ qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq Milliy gʻoya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etilib, unga quyidagi vazifalar belgilandi:

- Milliy gʻoya va mafkura bilan bogʻliq muammolarni, mafkuraviy jarayonlarni tahlil etish va baholash, ustivor yoʻnalishlarni aniqlash, ularning aholi qatlamlariga taʼsirini oʻrganish, milliy manfaatlarimizga zid gʻoyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish;

- amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahliliy materiallarning xulosalarini OAV orqali jamoatchilikka yetkazish<sup>412</sup>;

- milliy maʼnaviyatimizning qadimiy ildizlari va bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targʻibot ishlarini muntazam ravishda olib borish.

Koʻrinadiki, oʻMilliy gʻoya targʻiboti va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish toʻgʻrisida oʻ qaror yoshlarni milliy gʻoya ruhida tarbiyalash katta ahamiyatga ega boʻlib mazkur vazifalarni bajarish esa, milliy ziyolilarga, ayniqsa, soha vakillariga ulkan maʼsuliyat yuklaydi.

<sup>411</sup> Milliy istiqbol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000. 3-bet.

<sup>412</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining oʻMilliy gʻoya va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish toʻgʻrisida oʻ qarori. Maʼrifat gazetasi. 2006. 68-son.

Ushbu nuqta nazardan, yoshlarning maʼnaviy tarbiyasi va unda milliy mafkuraning tutgan oʻrni va rolini tahlil-tadqiq etish davrimizning dolzarb muammolariga kiradi va bu quyidagi omillar bilan belgilanadi:

**Birinchidan**, aholining har qaysi toifasi va qatlamlarining oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holdagi mafkuraviy faoliyat asosida maʼnaviy muhitni yuksaltirish diqqatimiz markazida turishi kerak. Bu esa, tabiiyki, alohida ijtimoiy-demografik guruh boʻlgan yoshlarga ham bevosita taaluqlidir. Agar, mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, yuqoridagi masalaning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik ekanligini koʻrish mumkin.

**Ikkinchidan**, jamiyatimizni isloh etishning maʼnaviy va mafkura sohasidagi eng asosiy vazifasi milliy qadriyatlarimizni tiklash, uni umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish, oʻzligimizni anglash, milliy mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizni soxtalashtirishga yoʻl qoʻymaslik, uning maʼnaviy hayotimizdagi oʻrnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga koʻtarish va yoshlarga taʼsirchanligini kuchaytirishdir.

Ijtimoiy-tarixiy amaliyot va nazariy tahlillar asosida aytish mumkinki, milliy mustaqillikni qoʻlga kiritgan har qanday davlat oʻtish davrining murakkab qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun, albatta, uning tub maqsadlari va manfaatlarini ifodalaydigan mafkurasi ham mavjud boʻlmogʻi lozim. Xalq ommasi, ayniqsa, yoshlar qaysi jamiyatda yashashidan qatʼiy nazar nimagadir ishonishi, eʼtiqod qilishi, qandaydir oliy ideallarga ergashib ish koʻrishi, faoliyat yurgizishi kerak. Ana shularni hisobga olgan holda Prezidentimiz Islom Karimov: *“Oldimizda turgan eng muhim masala, bu milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiiq etishdir, degan edi.”*<sup>413</sup>

Mustaqil Oʻzbekiston mafkurasi jamiyatimizning siyosiy va iqtisodiy sohalarda boʻlgani kabi maʼnaviy hayotimiz rivojiga ham aniq maqsad va yoʻnalish bermogʻi lozim. Maʼnaviyat mustaqillikning muhim shartlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Maʼnaviyatning umrboqiyli, uning inson, xalq va millatning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrat manbai ekanligi barchaga ayon. Maʼnaviyat boʻlmagan joyda erkinlik ham, adolat ham boʻlmaydi. *“Maʼnaviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarni qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini oʻzaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning maʼnaviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni oʻchab ham, poyoniga yetib ham boʻlmaydi. U inson uchun butun bir olam.”*<sup>414</sup>

Maʼlumki, mafkura inson ongiga uning qalbiga yoʻl ochib, dunyoqarashiga taʼsir etuvchi qudratli gʻoyaviy kuchdir. Shuning uchun ham, hozirgi vaqtda global miqyosda turlicha maqsad-manfaatlarini ifoda etuvchi reaksiyon va progressiv mafkuralar oʻrtasidagi kurashlar har qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Prezidentimiz ogohlantirganidek, bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan xavfliroqdir. Demak, har xil mafkuralarning taʼsiriga berilmasligi uchun yoshlar mafkuraviy yetuklikka ega boʻlishi zarur. Chunki, oʻgʻoyaga qarshi faqat gʻoya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat maʼrifat bilan kurashish mumkin.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz yoshlarining tarbiyasini oqilona tashkil etish davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega boʻlmoqda: 1997-yil avgust oyida boʻlib oʻtgan birinchi chaqiriq 9-sessiyasida qabul qilingan *“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”*da hamda Oʻzbekiston Respublikasining *“Tadim toʻgʻrisida”*gi qonun (1997-yil) yosh avlodning maʼnaviy tarbiyasi masalasiga alohida eʼtibor berilgan.

Shunga koʻra, oʻYosh avlodni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy anʼanalariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi taʼminlanadi. Umuminsoniy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi maʼrifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.<sup>415</sup>

Xulosa sifatida aytganda, milliy mafkuraga asoslangan maʼnaviy tarbiya aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olingan holda olib borilsa, mafkuraviy tarbiya oʻz samarasini namoyon etadi.

Bugungi murakkab davrda buzgʻinchi gʻoyaviy- mafkuraviy taʼsirlarga qarshi fuqoralarimizda mafkuraviy immunitetni, yot begona buzgʻinchi gʻoyalarni bilan mintalitetimizga toʻgʻri keladigan sogʻlom bunyodkor gʻoyalarni farqlay olish koʻnikmasini shakllantirish, oʻsib kelayotgan yosh avlodni esa vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, elim deb yonib yashaydigan insonlar qilib voyaga yetkazish zarur. Bizning milliy mafkuramizning mohiyati shundan iboratki, yoshlarimizni ezgu maqsadlar yoʻlida birlashtiradi va bunyodkorlik sari safarbar etadi.

<sup>413</sup>Karimov I.A. Buyuk maqsad yoʻlidagi ogʻishmaylik. T., 1993. 9-bet.

<sup>414</sup> Karimov I.A. Oʻzbekistonning oʻz istiqloq va taraqqiyot yoʻli. T., 1996. 71-bet.

<sup>415</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997. 24-25-bet.



## MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Bozorova M., Olloqulova F.

Termiz davlat universiteti

Dunyo yaralibdiki, unda doimo ikki kuch ó yaxshilik va yomonlik, bunyodkor va buzg`unchi g`oyalar hamisha o`zaro kurashadi. Bunyodkor g`oyalar insonni yuksaltirsa, buzg`unchi g`oyalar esa insonlarni yo`ldan ozdirib, xalqlar boshiga so`ngsiz kulfatlar yog`adiradi. Bunga faqatgina olis va yaqin tarixdan emas, balki bugungi globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan vaziyatlarni ko`rsatish mumkin. Bugunda kuchayib yanada quloch yozayotgan globallashuv jarayonining mahsuli bo`lgan „Ommaviy madaniyat o`g` «axborot xuruji» va shunga o`xshash vayronkor g`oyalarga qarshi g`oyaviy tarbiyani kuchaytirish, mustaqilligimizni mustahkamlashning asosiy shartlaridandir. Buning uchun esa mafkuraviy immunitetni rivojlantirish lozim. Yurtboshimizning „Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo`lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz o`qimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug`dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak o`- degan ko`rsatmalari o`smir yoshlar orasida mafkuraviy profilaktika ishlarini rivojlantirish ishlarini nechog`dik muhim ekanligini taqazo qiladi. «*Mafkuraviy immunitet*» tushunchasiga Prezidentimiz Islom Karimov quyidagicha ta`rif berganlar: «Ma`lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog`dom munosabatni qaror toptirishimiz, ta`bir joiz bo`lsa, ularning *mafkuraviy immunitetini* kuchaytirishimiz zarur».

*Immunitet* lotincha (immunitatis) so`zidan olingan bo`lib, biror narsadan xalos, ozod va f` rig`bo`lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo`zg`atuvchi virusga, dardga qarshilik ko`rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. «Immunitet» so`zining ma`nosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va ta`oirlaridan himoyalaniishi, qarshilik ko`rsatishi, rezistentligini bildiradi. Shuningdek, u daxlsizlik ma`nosini ham anglatadi, (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti).

G`oya qachonki inson qalbini egallasa, uning ma`naviy-ruhiy holatining bir qismiga aylansagina, harakat uchun qo`llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo`lib qolmoqda.

*Mafkuraviy profilaktika* - mafkuraviy immunitet tizimini shakllantiruvchi bosh omildir. U o`z mohiyatiga ko`ra yot g`oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo`qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o`z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllar ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g`oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy ishlar majmuini, bu sohada to`g`ari tashkil etilgan ta`dim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Har bir o`smir qalbida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ertangi kunga ishonch tuyg`ularini rivojlantirish borasida butun jamiyat a`ozolari jumladan, ota- ona, qo`ni- qo`shni, mahalla- ko`y, muassasa va mutasaddi tashkilotlar birdek mas`uldirlar. Xalqimizda, „Bir bolaga yetti mahalla ota-onao` degan ibratli naql zamirida katta ma`no mazmun mujassam.

Mafkuraviy profilaktika ishlarini biz amaliy dasturga aylantirishimiz, eng avvalo biz yoshlar, o`smirlar auditoriyasiga muroj at qilishimiz lozim. Chunki, bu davr dunyoqarashning shakllanishi, e`tiqodning mustahkamlanishi uchun o`ta sezgir bosqich hisoblanadi. Shu ma`noda buzg`unchi g`oyalar markazida yoshlar turibdi. Mafkuraviy profilaktikaning asosiy harakat dasturi bu maktab, oila, mahalla hamkorligidir.

- Maktab va kollejlardagi 45 yoki 80 daqiqa davomida faqatgina bilim bermasdan, yoshlarga bugungi kun, OAV dagi xabarlar, dunyoning siyosiy, mafkuraviy manzarasidan xabardor bo`lishlari uchun sharoit yaratish.

- „Ota-onalar savodxonligi o` kurslari. Buni asosan mahalla mutassadilari tomonidan oyda bir marta semina - trening tarzida o`tkazish.

- Yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish.

- Tariximiz, milliy qadriyat va ana`nalarimizdan xabardor qilish.

- Din va dunyoviy bilimlarning bir biriga qarama-qarshi emasligini tushuntirish.

- Yoshlar bandligini ta`minlash.

- Nafaqat maktab va kollejlarda qolaversa mahalla fuqarolar yig`inlarida ham ma`naviy, madaniy tadbirlarni uyushtirish.

- Maxsus targ`ibot markazlari faoliyatini yo`lga qo`yish.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash mumkinki, har bir shaxs, har bir fuqaro jamiyatda, davlatda, dunyoda bo`layotgan voqea va hodisalarga befarq qaramasdan, daxldorlik hissini tuyib, Vatanimiz kelajagi bo`lgan yoshlar ta`dim-tarbiyasiga mas`ulliklarini unutmastliklari lozim. Yurtimizning jahon hamjamiyatida o`z o`rni, obro-e`tiborga sazovor bo`lishi, yoshlar zimmasida. Zotan, o`tmish va kelajak o`rtasidagi bugunning egalari biz yoshlar.

## MA'NAViy-AXLOQiy TARBIYA SHAXS DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Jumayev B.

Termiz davlat universiteti

Jadal sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, dunyoning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib ildiz otib borayotgan ma'naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma'naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan himoya qilishni talab qilmoqda. Qolaversa, jahonning qaysidir burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdidning paydo bo'lishi o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan ayniqsa, farzandlarimiz ko'proq aziyat chekishi mumkinligi yoshlarda mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik ruhini yanada kuchaytirish lozimligini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oyalarni yoshlarning ongi va shuuriga singdirishning eng asosiy vositalaridan biri o' bu badiiy qadriyatlarni internalizatsiyalashdir. Badiiy qadriyatlar inteorizatsiyasi o' ijtimoiy ahamiyatga ega yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shaxs fazilatlariga aylinishidir. Ijtimoiy g'oyalar qachonki, shaxs sifatlariga aylanmas ekan, uning faoliyatda namoyon bo'lishi ehtimoldan yiroqdir.

O'Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ra muhim ishni o'z holiga, o'zi bo'darchilikka tashlab qo'qaydigan bo'dsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'q'irilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. SHunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'dimiz barchamizga saboq bo'dishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'dib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.

O'Ma'dumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'dishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Masalan, Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'dib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi va odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, bir-birini qo'llab-quvvatlab hayot kechirishga zamin tug'diradi. Shu ma'noda, xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'dsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

O'Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo'dib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'dsa, bugun ham, ta'dbir joiz bo'dsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni o' butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruxida hayot kechirishga da'vat etmoqda.

Taʼlimni integratsiyalash fikri xalq taʼlimida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshladi. Agar kichik maktab taʼlimini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirilsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni oʻrganish obyektlari boʻlgan baʼzi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Taʼlimni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlangʻich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qoʻyishi va ularning rivojlanishi qonunlariga oʻz munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun boshlangich sinf yoshidagi bolalarga boshlangʻich sinflarga tayyorgarlik davridayoq turli fan darslari oʻqilib, kichik maktab yoshidagi oʻquvchi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan koʻrishi muhimdir.

Asosiy fanlarni oʻzlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni oʻrnatish taʼlimga integratsiyalashgan yondoshuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarda tushunchalarga koʻp marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish,

<sup>575</sup> Karimov I.A Oʻzb kiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari.-Tosh: Oʻzb. 1997.-284 b.

shu yoshga tushunarli boʻlgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va oʻtkazish tartibiga ega boʻlgan, tarkibiga shu oʻquv predmetiga tegishli boʻlgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa oʻquv predmetlari bilan bogʻliq tushunchalar tahlil qilishning natijalari asosida kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «boʻron», kabi tushunchalar oʻqish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy sanʼat darslarida koʻrib chiqiladi. Tushunchalarni tahlil qilish boshqa oʻquv darslarida oʻzlashtirilgan bilimlarga murojaat qilingan holda integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin boʻlishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, oʻziga hos oʻtish metodikasiga ega boʻladi.

Umumiy taʼlimning poydevorini qoʻyadigan boshlangʻich maktabdagi koʻp tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy sanʼat va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator oʻquv predmetlari uchun umumiy boʻlgan tushunchalar orasidagi aloqalarni oʻrnatish psixologik va metodik asosi boʻlgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan oʻtkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida oʻrnatilishi va zarur oʻqitish vositalari bilan taʼminlanishi kerak.

Tekshirish davomidagi oʻquv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar; integratsiyalash uchun fanlarning maʼqul birlashishi, oʻqituvchi va oʻquvchi xarakterlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlash katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda bolalarni yoshlikdan boshlab shaxs sifatida tarbiyalab borish vazifasi jamiyatimizning davlat, maktab, tarbiyachi va oʻqituvchilar oldiga qoʻygan eng muhim vazifasidir. Bu esa biz tomondan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini takidlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jixatdan tarbiyalash tadbirlari oʻz taʼlim tizimini demokratik va insonparvarlik yoʻnalishlarida qayta qurish bilan ham bogʻliq. Chunki, insonparvarlik gʻoyalari va tamoyillari milliy gʻoya bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, insonning moddiy va maʼnaviy farovonligini, erkin, mustaqil, ijodiy faoliyatini, kishilarning oʻzaro hamkorligi, doʻstligi, hamjihatligi, birdamligi va bir-biriga gʻamxoʻrligi kabi eng yuksak, ilgʻor insoniy fazilatlarini oʻzida mujassam etadi. Odillik, halollik, poklik, toʻgʻrilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, baynalminallik, odoblilik, vijdonlilik, iymon-eʼtiqodlilik, mehmondoʻstlik, kamtarlik, or-nomusni, sharm-hayo va iffatni eʼzozlash, tinchliksevarlik, olijanoblik, el-yurt manfaatini oʻz manfaatidan ustun qoʻyish kabi yuksak insoniy fazilatlar ham insonparvarlikning namoyon boʻlishidir. Bu fazilatlarining barchasi bolalarga yoshligidan, yaʼni oiladan boshlab berib borilishi shart. Chunki xalqimizda oʻbora boshidan oʻ degan gap bekorga aytilmagan.

Hozirgi kunda respublikamizda taʼlim-tarbiya jarayoniga katta eʼtibor qaratilib, bu borada qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Ayni chogʻda respublikamiz miqyosida ushbu hujjatlarga muvofiq va «Davlat taʼlim standarti toʻgʻrisida» gi Nizomga amal qilingan holda taʼlim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda.

Oʻz kiston R spublikasi oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritgan dastlabki kundanoq davlatimiz, jumladan, pr zid nt I.A.Karimov tomonidan oʻzib-ulgʻayib k layotgan yosh avlod tarbiyasiga jiddiy yondashila boshlandi. U yoshlar tarbiyasida axloqiy m zonlar asosiy omil ekanligini bir n cha bor taʼkidlab: «Biron bir jamiyat maʼnaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib oʻz istiqbolini tasavvur eta olmaydi»<sup>576</sup>- d gan edi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, mamlakatimizdagi barcha oʻqituvchilar oʻzlarining shaxsiy ish r jalari boʻyicha joʻshqin m hnat qoʻynida, ular oʻz kasbiy faoliyatida va int II ktual salohiyatidagi barcha imkoniyatlarini barkamol avlod tarbiyasiga, yaʼni talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga bagʻishlagan.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A oʻOʻz kiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. - Toshk nt: Oʻz kiston, 1997.
- 2.Karimov I.A. oʻBarkamol avlod - Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. o Tashkent, -1997 yil
- 3.Gʻulomov J.R., Raimova M. "Tarbiyaviy korr ktsion faoliyat m todikasi". M todik qoʻdlanma. - T., 2010.

### **MATEMATIKA DARSLARIDA TARIXIY BILIM BERISHNING AHAMIYATI**

**Panjjeva M.**

Termiz davlat universiteti

Prezidentimiz Islom Karimovning o Tarixiy xotirasiz kelajak yo`qo asarida oO`zlikni anglash tarixdan boshlanadi, degan muhim fikr mavjud. Darhaqiqat, ona yurtning tarixini bilmasdan va u bilan faxrlanmasdan turib

<sup>576</sup> Karimov I.A Oʻz kiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. - T: Oʻz kiston, 1997.-326b.

milliy o'zlikni anglab bo'lmaydi. O'tmish tarixini mukammal bilgan xalq va millat tarix saboqlaridan o'ziga zarur xulosalarni chiqarib oladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning o'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li o'z asarida O'zbekistonning yangilash va rivojlanishining o'z yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanadi. Bular: umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash, inson o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi va vatanparvarlik.

Hozirgi kunda biz yoshlar bu 4 bosqichni amalga oshirish uchun, eng avvalo tariximizni chuqur o'rganmoqimiz zarur. Tarixni o'rganish jarayonida ajdodlarimiz aql-zakovati bilan yuzaga kelgan milliy qadriyatlar biz uchun sabog' ekanligini va inson shaxsini kamol toptirish uchun muhim omil ekanligini bilamiz.

Prezidentimiz I. A. Karimov shunday yozadi: o'Mustaqil O'zbekistonning kuch qudrati manbai o' xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidir<sup>577</sup>. Shunday ekan, yoshlarni qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz bo'lajak pedagoglarning eng muhim vazifamizdir.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida, o'quv darslarida va darsliklarida milliy ruhni tarannum etuvchi rasmlardan va ko'rgazmalardan foydalanilmoqda.

Ajdodlarimizning buyukligi nimadan iborat ekanligini bilmay turib, milliy g'urur, milliy iftixorni shakllantir olmaymiz. O'rgatmoq eng avvalo o'rganmoq demakdir. Agar biz tarixni chuqur o'rgansak, o'sib kelayotgan yosh avlod-maktab o'quvchilarini dunyo qarashini kengaytira olamiz va bilim saviyasini yuksaltira olamiz. Kelajakka poydevor o'tmishdan boshlanadi, degan gap bor. Vujudimizda, qadriyatlarimiz tarkibida nimaki go'zallik bo'lsa, Ibn Sino, Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek, Umar Xayyomning pokiza vijdonidan, buyuk e'tiqodlaridan, muqaddas ruhlaridan jamlaganini har bir o'qituvchi, har bir o'quvchi bilmog'i kerak.

Prezidentimiz I. A. Karimov vatanparvarlik - shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi deb ta'riflaydilar. Haqiqatdan ham Vatanni sevmagan, uni har qarich yeri uchun ma'sulligini his etmagan har bir inson ma'naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Matematika darslarida, to'garak mashg'ulotlarida ham o'qituvchi o'quvchilarni o'tmishdagi va hozirgi davrdagi buyuk olimlarning tarjimai hollari, ularning ilmiy xizmatlari bilan tanishtirib, o'z xalqimiz, uning matematika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini bilan g'ururlanish tuyg'ularini singdirishi kerak. Masalan, buyuk o'zbek matematik olimi Al-Xorazmiy tarjimai holi bilan tanishtirish kerak. Bu esa o'quvchilarda ajdodlarga nisbatan faxr, vatan tarixiga nisbatan hurmat va eng muhimi vatanparvarlik shakllantiradi.

Vatan o'tmishdan, bugundan va kalajakdan iboratdir. Matematika tarixiga doir kitoblarda O'rta asr sharh olimlarining matematika sohasidagi ishlar haqida malumot berilgan. Keyingi yillarda taniqli olimlardan A. Ahmedov, A.P. Yushkevich, G.N. Qori-Niyoziy, S.X. Sirojiddinov, G. Jalilov va boshqalarning qilgan ishlari, shu olimlar ijodi haqidagi ma'lumotni yanada kengaytiradi va ularning metodlari bilan tanishtiradi. O'qituvchi dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda matematikaga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyo olimlarining ishlariga doir tarixiy materiallar haqida ma'lumot berib borsa, o'quvchilarning matematikaga qiziqishi va tarixiy bilimi ortadi.

Ta'lim tizimidagi islohatlarning bosh maqsadi o' yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarning borishi va ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlariga tegishli o'zgarishlar kiritish zarur. Bizga ma'lumki, o'quv jarayonida ta'lim va tarbiya birgalikda olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'z ona yurti manfaatlariga xizmat qiladigan sifatlarini tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida e'tibor berishi zarur:

- Vatanga muhabbat, milliy o'zlikni anglash. Avvalo o'qituvchi o'zi ana shu olijanob, fazilatlariga ega bo'lib, o'z nutqi orqali ham shu g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirib borishi lozim. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.<sup>578</sup>

Albatta bu islohotlar zamirida ta'dimni ma'dum bir tizimga solish, ta'dim samaradorligini oshirish orqali malakali yetuk kadrlarni tarbiyalash vazifasi yotadi.

Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodi ham barcha boshqa fanlar kabi milliy tarbiyaning umumiy maqsadlaridan va matematik materiallarning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'z vazifasini belgilab olishi kerak. Maktabda matematika o'qitishning eng muhim vazifasi, bu fanni o'quvchilarga chuqur singdirishdir. Matematikani metodik jihatdan to'g'ri o'qitish bir qator mafkuraviy masalalarni hal qilishga ham katta yordam beradi.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari ham uzoq o'tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlarida insonlarni odobli, ma'naviyati yuksak, komil mehnatsevar, vatanparvar bo'lib tarbiyalanishiga yangi g'oya va ta'dimotlarni yaratganlar. Bular: Muso al-Xorazmiy (783-850), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn

<sup>577</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T., o'O'zbekiston, 1993, 74-bet.

<sup>578</sup> I. Karimov, 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 29.01.2010

Sino(980 61037); Umar Hayyom (104861131); Nasriddin at-Tusiy (120161274); Ulug-bek (239461449), Gʻayosiddin al-Koshiy; Ali Qushchi (140261474); va boshqalarning bizga qoldirgan boy meroslari fikrimizga asos boʻladi. Bu allomalarimizning asarlarida bolalarning oʻqishi, mehnati, odobi va bu ishda muallimlarning vazifalariga katta eʼtibor berilgan. Jumladan, Nasriddin Tusiy fikri boʻyicha oʻqituvchi oʻquvchilarni aql-zakovatiga taʼsir qilishi uchun oʻquvchilar ishonchini qozonish va qalbidan joy olish masʼuliyatini his qilishi lozim. Abu Nasr Forobiy oʻqituvchi faoliyatida yoshlarning axloqiy meʼyorlari, amaliy koʻnikma va malakalarini oʻzlashtirishga yoʻnaltirilganligi asosiy vazifalardan biri ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino fikricha, tarixiy manbaalarni bilish olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm narsalarning inson aqli yordami bilan oʻrganilishi shaxs faoliyatida muhim hisoblanishini taʼkidlab oʻtadi. Abu Rayhon Beruniy pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va oʻrni, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin maʼnoda insonparvarlik asosida qurilgan. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik gʻoyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir.

Mustaqil Oʻzbekiston kuch qudratini mustahkamlash maqsadida Ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy merosni chuqur oʻrganib, uni taʼdim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir maʼnaviyatli va ijodkor mutaxassisning muqaddas burchidir. Biz boʻlajak oʻqituvchilar boshlangʻich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda ularning boy merosidan har doim foydalanmogʻimiz zarur.

## **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА ДИДАКТОГЕН ҲОЛАТЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШДА НУТҚ ЎСТИРИШ ИШЛАРИ**

**Махмараймова Ш.Т., Ҳакимова Н.Ў.**

Шунга қўра, мактабнинг айнан бошлангич синф ўқувчиларида дидактогения (ўқитувчининг педагогик фаолиятига зид бўлган ҳатти-ҳаракати оқибатида ўқувчиларда психоген характердаги бузилишлар) ҳолати кўпроқ учрайди. Негаки, юқори синф ўқувчиларидан фарқли ўларок, ўқувчининг нутқий бойлиги, лугат таркиби у қадар катта бўлмайди, шунингдек, ўз-ўзини ҳимоя қилиш учун ўқувчида етарли нутқий малака шаклланмаган бўлади.

## MOTIVATION OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

**Khasanova K.B., Kattayeva F.Sh.**

TerSU

In the era of globalization in all spheres of our life problems of motivation in learning foreign languages are becoming extremely important. Globalization means that more and more roles of personal contacts of people and, consequently, - verbal communication, including interethnic, which requires knowledge of a foreign language [1, P.122].

Foreign languages are a major factor in both socio-economic and general cultural progress of society. Foreign Language performs a huge role in shaping the personality and improving education, because with it you can get direct access to the spiritual richness of the other countries, to be able to direct communication with representatives of other nations. It is not surprising that, in recent years in our country significantly increased interest in foreign languages, mostly - to the English. Now, knowing two or more languages - is undeniable attribute of any modern highly educated man.

Knowledge of foreign languages has become a real necessity, without it is no longer possible to get a high-paying job and build a successful career. The new political and socio-economic changes in the world in the past decade, its commitment to actively and fruitfully cooperate with Western countries have significantly influenced the expansion of the functions of a foreign language as a subject, and led to a rethinking of the goal, objectives and content of foreign language teaching [2, P.3]. The new political situation, the expansion of international cooperation and international contacts today require a deeper knowledge of a foreign language.

All of the above significantly increases the prestige of the subject "foreign language" as an educational discipline of the university. Here, the concept of motivation comes to the fore. Of course, the problem of motivation in training there for each subject, but it appears particularly acute in the study of a foreign language. It's all about the specifics of a particular subject requires students to the presence of certain bases and communication skills. Often it causes some difficulties and students motivation fades. Therefore, considering the motivation as the main driving force in learning a foreign language, we note that the reasons relate to the subjective world of the person is determined by its

internal motivations. Hence, all the difficulties of motivation on the part of the call. A man can learn a foreign language, if he feels the need for this, you will have to motivate.

People studying a foreign language, because it is aware of the social importance of teaching. The inner motivation is not connected to external circumstances, but directly with the object itself. It is often called procedural motivation. People like just a foreign language, like to show their intellectual activity. Action external motives (prestige, self-assertion, and so on. D.) may enhance intrinsic motivation, but they are not directly related to the content and process activities.

In addition, the learning motivation can be divided into positive and negative. For example, the design of *ōIf I'm going to teach English, then get in the exam is greatō* - a positive motivation. The design *ōIf I'm going to learn English, you pass the exam, and I was not droppedō* - negative.

Of course, the method of interpreting the survey does not claim to comprehensive coverage of the situation and the disclosure of hidden subjective sense, but some conclusions can definitely do it: the vast majority of students in the study of a foreign language in high school is driven pro-social motivation ("should be on the curriculum", "not to have deducted"). That is to say that the process of training for them - this is a usual operation or forced behavior. A small proportion of students indicated the motive of self-affirmation ("build a successful career") and affiliation motive ("to travel", "communicate with foreigners"). And while only 5% of students have an intrinsic motivation - to learn foreign languages because they like it.

The main conclusion is that the students are mainly driven by external reasons, while there is a significant proportion of negative motivation ("to not expelled", "do not put two"). This is a contradiction, because the prestige of foreign language and its importance in public life increased, and would seem to be more than positive motivation. In addition, it is absolutely clear that the company is required actions to the call of intrinsic motivation in students. That is necessary to create an environment in which students have a vested interest and the need to learn a foreign language.

All of these species and subspecies are the main motivating forces of human motivation in learning a foreign language. However, it should be remembered that if the motivation is too strong, increasing the level of activity and voltage, resulting in overall performance deteriorates. In this case, a high level of motivation causes unwanted emotional responses. It is necessary to find the optimum, where the high performance side by side to give the joy of learning a foreign language.

#### **Literature:**

1. Language Transfer Cross *ō* Linguistic influence in language learning. Cambridge University Press. 1993.
2. Nida E. Towards a science of translation. Leiden. 1964
3. Nida E. Linguistics and ethnology in translation problems. Language structure and Translation. Stanford. 1975.

### **TA'LIM-TARBIYADA O'QITUVCHI MAS'ULIYATI**

**Karimova B.X.**

Termiz davlat universiteti

Ta'lim-tarbiyada o'qituvchiga yuksak ishonch qaratilmoqda. Ayniqsa bugungi kun o'qituvchisi oldida mas'uliyatli vazifalar turibdi. Ana shu mas'uliyat pedagoglarni nimanidir izlashga *ō* ustida muntazam ishlashga sharoit yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas'uliyat yuklangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov quyidagilarni qayd etadi: *ō*Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifalarni ado etishda birinchi galda ana shu mashaqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Ushbu fikrlardan bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablarning mazmun va mohiyati anglaniladi.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak? Mustaqillikdan keyin ushbu muammo ko'plab olimlarning, ziyoli ahlining, hatto ota-onalarning diqqat- e'tiborida bo'ldi. O'qituvchilar uchun zamonaviy, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan metodik va o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratila boshlandi. Lekin bu muammo bo'yicha izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar hozirgi kunda ham davom etmoqda. Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik- psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Albatta bu kelajak poydevor uchun qurilgan zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, o'Kadrlar



tayyorlash milliy dasturiö g'oyalari amaliyotga tatbiq etish, mamlakatimiz ta'dim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'dim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalaniladigan o'qitish qonuniyatlari, prinsplarini, ijodiy qo'llashda, ilmiy bilihga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo'lib kelgan O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o'zgacha ma'no kasb etishi muqarrar. O'qituvchi o' O'zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo'lgan yosh avlod ta'dim-tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasidagi obro-e'tibori hozirgi zamon talablariga mos bo'lishi shart.

O'qituvchi barkamol ta'dim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrof-dagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi yetuk o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish, o'qituvchi uchun ta'dim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi zamin bo'ldigina qolmasdan, ayni vaqtda, uning jamiyatdagi obro-e'tiborini ham oshiradi, o'quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'ldida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'd qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'diy Sher ziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususida qimmatli ma'dumotlarni o'z asarlarida qizg'ın bayon qilishgan. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'dim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushina olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholishi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatida hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Xulosa o'rniida shuni qayd etish joizki, o'Kadrlar tayyorlash milliy dasturiö O'zbekiston Respublikasi ta'dim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo'lib, istiqbol uchun yo'dlanmadir. O'zbekiston Respublikasining o'Ta'dim to'g'risidaögi Qonuni hamda o'Kadrlar tayyorlash milliy dasturiö g'oyalari amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarning pedagogi mahorati muhim rol o'ynaydi. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiytlar:**

1. Karimov I.A. o'Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuchöT: o'Ma'naviyatö 2008.173 bet.
2. M.Ochilov Muallim qalb me'mori: Toshkent 2010 yil
3. A.Xoliqov Pedagogik mahorat: Toshkent 2011yil
4. o'Barkamol avlod o' O'zbekiston taraqqiyotining po'ydevoriö.T: Sharq o' 1998yil.

### **PEDAGOGIK FIKRLAR VA PEDAGOGIK G'OYALAR ASOSIDA O'QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO'NALTIRISH**

**Imomqulov R., Ne'matov B.**

Termiz davlat universiteti

Yurtimizda komil insonni voyaga yetkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'dumki, shaxsning yuksak ma'naviyatli bo'lib shakllanishida ta'dim va tarbiyaning ahamiyati muhimdir. Allomalarimiz birinchi navbatda, tarbiyani ulug'lab, ta'dimga tarbiya orqali borishni targ'ab qilishgan.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov o'Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'don qilganniz. Komil inson deganda biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamizö,-deb ta'kidlagan edilar.

Hozirgi davrda barkamol insonni shakllantirish jarayonida o'quvchi yoshlarni har tomonlama mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalash muammosi eng dolzarbdir. Shu bois maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, universitet

va sotsiam institutlarda talabalarning ijodiy, aqliy va intellektual boʻlishi uchun oʻquvchilarni maʼnaviy boy, jismoniy jihatdan sogʻlom qilib tarbiyalash maqsadida, dastlab ularning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash lozim.

Oʻquvchilar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi boʻlgan tarbiyachi-oʻqituvchi chuqur bilim, yuksak mahorat va tarbiyachilik sanʼatini bilmogʻi lozim.

Taʼdim-tarbiya jarayonida oʻquvchilar bilimini oʻstirish, fanlarni oʻzlashtirish, dunyoqarashini shakllantirish, turli fanlar boʻyicha oʻqituvchi kasbiga yoʻnaltirish, akademik-litsey, kollej va universitet hamkorligining uzviylikini muqobil-optimal yoʻllarini, muammolarini aniqlash, yechimini topish masalalari hozirgi davr talablaridan biridir.

Akademik litsey, kollej va universitetlarda pedagogik texnologiyalarni qoʻllash har xil texnik vositalarni, smart, flipchart doskalaridan foydalanish, taʼdim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, pedagogik innovatsiya tarmoqli metodlar sohasida muqobil yoʻllarni ilmiy va amaliy jihatdan tajribalar asosida izlanishlar bugungi kunda taʼdim samaradorligining asosiy masalalaridan hisoblanadi. Anʼanaviy, noanʼanaviy, elektron darslar oʻtish jarayonida metodik jihatdan juda koʻplab pedagogik masalalarga duchor boʻlmoqdamiz. Shu bois taʼdim-tarbiya jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilar faoliyatida muloqotning yaxshi yoʻlga qoʻyilishi oʻquvchilarning sotsium va dars jarayonida bilimga, fanga qiziqish, aqliy fikrlash qobiliyatini oʻstirish, shakllantirish, integratsiya muammolarini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish har bir pedagogning asosiy masʼuliyati hisoblanadi.

Vazifamiz -taʼdim-tarbiya jarayonida oʻquvchi yoshlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali bilimlarni tarmoqlarga boʻlib talabalarga taqdim etish, shuningdek, fanlarni oʻzlashtirishda, mustaqil fikrlash va fan oʻqituvchisi boʻlishga qiziqtirishning optimal va muqobil yoʻllarini aniqlash, oʻrganishdir.

Muhtaram yurtboshimizning quyida fikrlarini mutoala qilganimizda yanada masʼuliyat hissi oshib borganini his eta olamiz.

oʻOʻz-oʻzini el ishiga bagʻishlagan inson tarbiyasiga jon tikkan olijanob oʻqituvchilarni, moʻtabar oʻqituvchilarni bundan buyon ham boshimizga koʻtaramiz.

#### **I. A. Karimov.**

Ajdodlarimizning merosi doimo bizgacha durdona boʻlib hisoblanadi. Shunday ekan ular fikridan namunalar keltiramiz. oʻUstoz, muallimsiz qolganda zamon, nodonlikdan qora boʻlurdi jahon.

#### **A. Jomiy.**

oʻMen bir narsani bilaman, u ham boʻlsa-hech narsani bilmasligimdir.

#### **Suqrot.**

oʻMaktab oʻqituvchisi-gunohsiz yosh bolalarga jazo qiluvchidir.

#### **A. Navoiy.**

oʻTarbiya ishlari ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir boʻlayotgan voqealar bilan bilan bogʻliq holda olib borishni talab etadi.

#### **M. Behbudiy.**

oʻOʻqituvchilarga bolalarni tarbiyalashga quyidagi usullarni qoʻllashni olgʻa surgan: nasihat, tanbeh berish, amru-farmon, majburiyat qoʻyish.

#### **Qoshgʻariy.**

oʻTaʼdimda oʻqish va fikrlash, oʻylash muhim oʻlginini taʼkidlagan olim

#### **Konfutsiy.**

oʻYaxshi murabbiy boʻlgan taqdiridagina yaxshi oʻqituvchi boʻlishi mumkin, degan edi

#### **V. A. Suxomlinskiy**

oʻBolalarning qobiliyatlariga yuksak baho beradi. Uning fikricha, bola maktabda tarbiyalanmogʻi lozim.

#### **M. F. Kvintilian.**

oʻYeru zaminning koʻrkamligi olimlar boʻlsa, osmonu falakning ziynati esa yulduzlar bilandur.

#### **Az-Zamaxshariy.**

oʻAqlga ilm birla bergil koʻmak

Aql-bu ilmga xaridor demak.

#### **N. Xusrav.**

oʻAql nodondir, zamon pahlavon

Istasang, qiynalmay qilursan ravon.

#### **A Firdavsiy.**

oʻHar kishiga boʻlsa aql ham hunar,

Dunyoda lozim anga ikki umr.

Avvalida yigʻsa bilim, tajriba,

Soʻnggisida barchasin ishga solur.

#### **S. Sheroziy**

Insonning qiymati emas siymu zar,

Insonning qiymati ilm ham hunar.

### **A.Bedil**

Odamdan yuqori turarkan olam  
Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.

### **A. Rudakiy**

Odamlar aqlining chirogi bilim,  
Balodan saqlanish yarogʻi bilim.

### **A. Rudakiy**

Ilm-insoniyat gavharidir.

### **A.Bedil**

Shunday yashagilki sen bodsang Sharqda,  
Seni duo qilsin odamlar Gʻarbda.

### **A.Jomiy**

Oʻquvchi yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda samarali usullarni tanlash yanada maqsadga muvofiqdir.

- birinchidan interfaol jarayonida oʻquvchilar bilan darslarni tashkil etish jarayonida mavzulardagi nomlarni tanlash va innovatsion metodlar yaʼni tarmoqlarga boʻlib chiqish;

- ikkinchidan mavzularning nomlarni innovatsion metodlarni muqobil variantlarni yani oddiy doska yoki texnik vositalar, smart, flipchart doskalarda, kompyuterda elektron slaydlar yordamida tashkil etish mumkin;

- uchinchidan talabalar oʻz fikrlarini mustaqil bayon etish yakka tartibda kichik guruhda yoki mustaqil testlar tuzish orqali;

- toʻrtinchidan mavzudagi nomlarni tarmoqlarga boʻlgandan keyin oʻquvchilar mustaqil fikrlab, pedagogik qarashlarni, gʻoyalarni ogʻzaki yozma yoki ijodiy esse texnologiyalar orqali fikrlarni oʻrganib oladilar;

- beshinchidan talabalar fanlarni oʻzlashtirishi jarayonida bilimga, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga, uzluksiz taʼlimda uzviylikni, hamkorlikni va oʻqituvchilik kasbiy muammosiga qiziqishini muqobil yoʻllarini yechimini yechish mumkin.

Binobarin, talabalarning mustaqil fikrlab, integratsiya jarayonidagi muammoning muqobil variantlarini tuzish va ularning intellektual darajasini koʻtarish masalalari alonida ahamiyat kasb etadi. Bu esa dars samaradorligini oshirishda, talabalarning oʻqituvchilik kasbiga yoʻnaltirishda innovatsion tarmoqli metodlarning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqazo etadi.

## **ТАЪЛИМ-ТАРБИЯДА ҲАМКОРЛИКНИНГ САМАРАСИ**

**Усмонова Д.**

## **O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIK TO'GARAKLAR VA ULARNI TASHKIL QILISH**

**Choriyeva S.T., Turdimurotov B.Q.**

Termiz davlat universiteti

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola o'quvchilarni matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati va ularni tashkil etishga bag'ishlangan. Shu sababdan keltirilgan masalalar mavzu tevaragida o'quvchilarning mustaqil matematik faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Tadim sifatining oshishi sinfdan tashqari mashg'ulot va tadbirlarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini qanday darajada rivojlanganliklariga bevosita bog'liqdir. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda muammoli-rivojlantiruvchi yondoshuvga asoslangan, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan.

O'quvchilarning matematikaga qiziqishlari oshishiga vaqti-vaqti bilan ularga uyga kichik hajmdagi qiziqarli masalalar, sofizmlar, matematik fokuslarning hamda o'rganilayotgan material bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarni berib borish muhim omil bo'ladi.

Shu bois matematikadan sinfdan tashqari ishlarda to'garaklarning ahamiyati juda kattadir. To'garakni tashkil qilish uchun to'garakning shaklini aniqlash lozim. Bular mavzuli mashg'ulotlar, o'n minutliklar va to'garakning boshqa shakllari, ya'ni asosiy mavzu bilan bog'liq bo'lmagan masalalar:

1. Oldingi mashg'ulotlarda ko'rilgan masalalarga o'xshash masalalar, o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlovchi masalalar, qiziqarli masalalar, tarixiy va mantiqiy masalalar.

2. Matematik sofizmlar, fokuslar, hazil masalalar, geometrik illyuzasiyalar, matematik o'yinlar ko'pincha to'garak oxirida taklif etiladi.

3. To'garak a'zolariga uyga berilgan masalalarni muhokama etish.

4. 30-40 minutli ma'ruzalar va suhbatlar. Matematika va matematika tarixiga oid mavzular bo'yicha, masalan, o'quvchilarga nomadum bo'lgan tushunchalar bilan tanishtirish uchun, lekin qiyin bo'lgan mavzular bo'yicha «Topologiya nima?», «Analiz haqida tushuncha» mavzularidan ma'ruzalar uyushtirish mumkin. Tarixiy mazmunli ma'ruzalarda atoqli olimlar faoliyatini yoritish mumkin. Masalan, «Yevkliddan Lobachevskiygacha», «Taniqli o'zbek matematiklari» va h.k.kabi ma'ruzalar shular jumlasiga kiradi. Sharhli ma'ruzalarga, masalan, «Son taraqqiyoti tushunchasi», «Algebraning paydo bo'lishi»lari kiradi. Ma'ruzachi sifatida o'qituvchi yoki o'quvchilar bo'lishi mumkin. Matematikaning tadbirlari va ahamiyati haqidagi ma'ruzalar ham tinglashi mumkin. Ma'ruzadan qolgan vaqtda masalalar yechish, qiziqarli va mantiqiy masalalar yechiladi.

5. Modellashirish (matematika bo'yicha ko'rgazmali qurolar yasash).

6. Matematik ekskursiyalar va o'lchashlar.

7. Matematik kitob va maqolalarni muhokama etish.

8. To'g'arak a'zosining o'zi yechgan masala yechimi haqida ma'ruzasi.

9. Matematika bilan bog'liq badiiy asarlardan, parchalar o'qish.

10. Matematikaga bog'liq audio va video roliklarni ko'rish.

**Mavzuli mashg'ulot.** Mashg'ulotning asosiy qismini biror mavzuga oid masalalar yechish tashkil etadi. Masalan, «Fazoda nuqtalarning geometrik o'rni» yoki «Muavr formulasi va uning tadbirlari» mavzulari bo'yicha.

O'qituvchi oldindan masalalar va savollar royxatini aniqlaydi va ularni ma'dum ketma-ketlikda joylashtiradi. Mashg'ulot o'qituvchining mavzuning ahamiyati va uning tadbirlari haqidagi kirish eslatmalaridan boshlanadi. Ba'zida mavzuni ajoyib bir masalani qarash bilan boshlash mumkin. Shundan so'ng to'g'arak rahbari masalalar va savollarni taklif etadi, Masalalarni o'quvchilarning o'zlari alohida, sinfning o'zida yechadilar. Agar o'quvchilarda qiyinchilik vujudga kelsa o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar yoki ko'rsatmalar beradi. Keyingi masalaga oldingi masala ko'rib chiqilmaguncha o'tilmaydi. Masalalarni yechib, savollarga javob berib, o'quvchilar sekin-asta mustaqil ravishda mavzuni ochib boradilar. Har biri tashabbus, mustaqillik, ijodiy qobiliyatlarini ko'rsatishi mumkin. Mavzuning ochilishi to'g'arak jamoasi ishi sifatida olib boriladi. Mashg'ulot davomida umumlashtirishlar olib boriladi, O'qituvchi o'quvchilar bilan birga xulosalarni bayon etadi. Mashg'ulot oxirida qisqa yakun yasaydi, ularga uyga masalalar taklif etadi va mavzu bo'yicha adabiyotlarni aytadi.

Ba'zida mavzuli mashg'ulotga bag'ishlangan ma'dumotda o'quvchilarning o'zlari ochib bera olmaydigan jihatlardan boshlab, o'qituvchining o'zi ochib beradi yoki tayyorlangan o'quvchi aytib beradi.

Ba'zida o'quvchilarni qiziqarli masalalar, lekin qiyin bo'lgan masalalar bilan tanishtirish lozim.

Umuman olganda, 70-80% vaqtni mustaqil masalalar yechishga bag'ishlash lozim.

**O'n minutlik.** Matematik to'g'arakning ikkinchi muhim shakli o' o'qituvchi yoki o'quvchining biror nisbatan tor masala bo'yicha kichik xabar(yoki hikoya)ni gapirib berishi hisoblanadi. U 8-15 minut davom etadi. Uni biz qisqacha o'n minutlik deyimiz. Bunday o'n minutlikning mavzusi bo'lib: 1) biror atoqli matematik olimning qisqacha tarjimai holi; 2) matematika tarixidan biror qiziqarli ma'dumot, masalan, logarifmlar yaratilish tarixi; 3) og'zaki hisoblash usuli; 4) biror matematik kitob, maqola haqida xabar.jurnalning sharhi; 5) biror matematik masalaning qisqacha bayoni (masalan, «Sikloida»).

Ko'pincha o'n minutlik mavzuli mashg'ulotdan so'ng o'tkaziladi, o'quvchilar charchagandan so'ng. Mazmun bo'yicha u mavzuli mashg'ulot bilan bog'liq. Asosiy mavzu va o'n minutli mavzular farqlanishi bir nechta afzalliklarga ega: o'n minutlik katta hisoblashlar va isbotlashlarga ega emas, u o'quvchilar tomonida oson o'zlashtirilishi lozim. O'n minutlik sharh xarakterida bo'lib, isbotlashlarga ega bo'lmaydi

Misol. Ikkita ixtiyoriy ikki xonali sonni ko'paytirishning yig'ama usuli.

O'ngan asrlarda tajribali o'qituvchilar bu usulni maktablarda qo'llanilishini taklif qilganlar. Uni normal ko'paytirish usuli deb ataganar. Ba'zi amerikaliklarga u shunchalik yoqib qoldiki, uni hatto amerikacha usul deb atashganlar. Lekin undan eramizgacha 6-asrlarda hindular foydalanishgan, shuning uchun uni to'g'arirog' hinducha usul deyish mumkin.

Ikki qandaydir ikkita ikki xonali sonni, masalan, 36 ni 18 ga ko'paytirish zarur bo'lsin. Men darhol nima hosil bo'lishini yozaman:  $36 \times 18 = 648$ . Lekin u qanday olindi? 1-qadam:  $6 \times 8 = 48$  deyman va 8 ni yozib 4 ni dilda saqlayman; 2-qadam  $3 \times 8 + 1 \times 6 = 30$  deyman va dildagi 4 ni qo'shib, 34 deyman, 34 ning 4 ni 8 dan chapga yozib 3 ni dilda saqlayman; 3-qadam:  $3 \times 1 = 3$  va 3ga 3 ni qo'shib 6 ni 4 dan chapga yozaman.

#### **To'g'arak ishini rejalashtirish.**

O'qituvchi to'g'arakning ish rejasini o'quv yili uchun tuzishi mumkin. Rejada quyidagi bo'dimlar bo'dishi lozim:

1. To'g'arak mashg'ulot tartib raqami;
2. Sana;
3. Mazmuni (to'g'arak mashg'ulotining);
4. Kim mas'ul (bu mashg'ulotning har bir qismi uchun);
5. Muddati (mashg'ulot ayrim qismlarini tayyorlash muddatlari);
6. Bajarilganligi haqida qayd.

Tashkiliy ishni to'g'arak ishidan alohida rejalashtirgan ma'qul. To'g'arak tomonidan tasdiklanadigan rejaga to'g'arak mashg'ulotlarida ko'riladigan asosiy masalalar kiritiladi. Shu bilan birga o'qituvchiga to'g'arakda ko'rishga mo'ljallangan qo'shimcha materiallarni ham rejalashtirishi lozim.

#### **Tashkiliy ish.**

1. O'qituvchining to'g'arak istiqbollari haqidagi hikoyasi.
2. To'g'arak matematik jurnalini chiqarish.
3. To'g'arak sardorini saylash.
4. To'g'arak ish rejasini tuzish. To'g'arakda uni tasdiqlash.
5. Matematika devoriy gazetasini chiqarish.
6. To'g'arak matematik kutubxonasini tashkil etish.
7. Buyuk matematiklar nomli stendni chiqarish
8. Matematik olimpiadaga tayyorgarlik (yil davomida). Olimpiadada qatnashish.
9. Matematik kecha o'tkazishda qatnashish.

#### **To'g'arakda mashg'ulotlarni mustahkamlash.**

##### **To'g'arakning oxirgi mashg'uloti.**

1. To'g'arakda ko'rilgan materiallar to'g'arak jurnalida qayd etiladi.
2. O'quvchilar to'g'arak mashg'ulotlarini yozib borishlari lozim.
3. To'g'arak mashg'ulotlarida oldingi mashg'ulotlarda ko'rilgan masalalar taklif etiladi.
4. To'g'araklarda ko'rilgan materiallar turli matematik musobaqalar uchun, masalalar matnlari tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
6. O'qituvchi darslarda to'g'arakda olingan bilimlarni qo'llaydigan o'quvchilarni rag'batlantiradi.
7. Yilda ko'rilgan materiallarni mustahkamlashga oxirgi yig'ilish bag'ishlanadi.

Bu yakundovchi yig'ilish. Unda rahbarning o'tgan yildagi to'g'arak ishi yakunlari haqida suhbat, qanday masalalar ko'ildi, nima yangiliklar o'rganildi, og'zaki savollar berish mumkin. Uning asosiy qismi qiziqarli matematikaga bag'ishlanadi. Matematik viktorina «To'g'arakda nimani o'rgandim?» to'g'arak a'zolari to'g'arak haqida taasurotlarini aytishlari maqsadga muvofiq.

#### **Matematik kecha va to'g'araklarda qo'llanilishga tavsiya etiladigan masalalar.**

##### **1. Qiziqarli va turli hayotiy vaziyatlarga doir masalalar.**

**1-masala.** Stakanda bakteriyalar bor. Bir sekunddan so'ng bakteriya-ning har biri teng ikkiga bo'linadi, so'ngra har bir hosil bo'lgan bakteriyalar bir sekunddan so'ng teng ikkiga bo'linadi va h.k. Bir minutdan so'ng stakan to'ldi. Qancha vaqtdan so'ng stakan yarmigacha to'lgan bo'ladi?

**Javob:** 59 sekundan so'ng.

**2-masala.** Professor otasining o'g'li professor o'g'lining otasi bilan gaplashyapti, bunda professorning o'zi qatnashmayapti. Shunday bo'lishi mumkinmi?

**Javob:** ha, mumkin, agar professor o' ayol bo'lsa.

**3-masala.** Bir stakan sutdan uch qoshiqni bir stakan choyga aralashtirishdi va aralashtirishdi. So'ngra uch qoshiq aralashmani olib sut solingan stakanga quyishdi. Endi sut solingan stakanda choy ko'pmi yoki choy stakanda sut ko'pmi?

**Javob:** Albatta, sutli stakanda choy, choyli stakanda sut qancha bo'lsa shuncha bo'ladi.

Ijodiy masalalar tizimi o'quv jarayoniga maqsadli kiritilishi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi, sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi mustaqil o'quv faoliyatini ilmiy faoliyatga yaqinlashtirishga imkon beradi, bu esa umumta'lim maktablarda o'quvchilarning matematik ta'limi sifatini oshirishga imkon beradi.

Qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'aluqli zamonaviy psixologiyaning asosiy muammosi quyidagidan iborat: berilgan qobiliyatlarni qo'llashni talab etadigan faoliyatda qobiliyatlar shakllanadi va rivojlanadi. Demak, qobiliyatlar ma'dum turini rivojlantirish uchun yaxshi sharoit bu qobiliyatlarni namoyish qiluvchi va kuchaytirishni talab etadigan maxsus tanlangan mashqlarni bajarish hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Petrakov A. Matematikadan to'g'araklar. Toshkent, 1988
2. Jo'rayev M. «Sehrli» raqamlar siri.-T.:O'zbekiston, 1990.-111 b.

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

Fayziyev M.A.<sup>1</sup>, Azimov S.E.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Samarqand davlat universiteti,

<sup>2</sup> Samarqand davlat universiteti qoshidagi 1-son akademik litsey

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining turli-tumanligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning amal qilishi, texnologiyaga oid axborotlarning ko'pligi hamda ularning o'zgaruvchanligi kabi holatlar axborot texnologiyalarini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilish jarayoniga yangicha yondashishni talab qiladi. Shunda o'quvchilarning jamiyatdagi texnologik jarayonlarni to'g'ri baholay olish, texnika va texnologiyaga oid muammolarni va ishlab chiqarish yo'nalishini chuqur bilish imkoniyatlari oshadi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarini chuqur bilishning ahamiyati kuchayganligi hamda ijtimoiy-texnologik jarayonlarda doimiy va uzluksiz o'zgarishlarning bo'lishi o'quvchilardan o'z mutaxassisliklari bo'yicha uzluksiz bilim saviyalarini oshirishni talab qiladi.

Axborot texnologiyalarini o'qitish jarayonida o'quvchilar mustaqil ishini tashkil qilish ikki yoqlama, ham tarbiyaviy ham bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish xususiyatiga ega bo'lmog'i lozim. Tarbiyaviylik xususiyati shundan iboratki, bunda o'quvchi o'z bilimini oshirish va ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'zini-o'zi tarbiyalab boradi, ya'ni mutaxassis sifatida shakllanishi uchun bilim olishning yangi qirralarini tushunib yetadi. Bilim olishga ishtiyoqni kuchaytirish xususiyati esa o'quvchidan bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil ishlash jarayonining shakllanishiga olib keladi. Bu ikki xususiyatni o'quvchilarda shakllantirish kadrlar tayyorlash milliy modelining maqsadi hisoblanadi.

O'quvchilar mustaqil ishini tashkil qilish haqida fikr yuritishdan oldin «o'quvchining mustaqil ishi» tushunchasining mazmun va mohiyatini bilib olish lozim. Ko'p hollarda «o'quvchining mustaqil ishi» deyilganda o'quvchining auditoriyadan tashqari o'qituvchisiz bilim olish shakli tushuniladi. Ammo bunday tushuncha tor ma'nodagi tushunchadir. Bizning fikrimizcha, mustaqil ish o'qitishning barcha ko'rinishlarining bir qismi va o'quv jarayonining muhim shakli hisoblanishi lozim. Faqat shunday holdagina mustaqil ish orqali o'quvchi ham ijodiy ham ilmiy fikrlash qobiliyatini shakllantira oladi. Psixolog olimlarning fikriga qaraganda, o'quvchi u yoki bu muammoni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan olgan bilimlarga asoslanib mustaqil holda o'rgansa, o'rganilayotgan muammoning 75-90 foizi uzoq vaqt mobaynida uning xotirasida saqlanib qoladi. Ammo, ko'p hollarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor berilib, mustaqil ish ikkinchi darajali o'quv shakli bo'lib qolmoqda. Haqiqatda, turli tashkil qilingan mustaqil ish o'qitishning boshqa shakllari bilan bir xil ta'sir kuchiga ega, ba'zi hollarda ulardan ustunlik ham qilishi mumkin.

Demak, o'quvchining mustaqil ishi, keng ma'noda o'quvchining bilim olish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlari yig'indisidan iborat bo'lib, o'z ichiga (o'qituvchi rahbarligi ostida yoki mustaqil holda) ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilim olishga qiziqishni tarbiyalash, muammolar bo'yicha ilmiy fikrlay olishni rivojlantirish, ob'ektiv iqtisodiy voqelikni chuqur va har taraflama tahlil qila olishi va boshqalarni qamrab olmog'i lozim.

O'quvchilarning mustaqil ishini guruh miqyosida yoki individual tarzda (o'qituvchi rahbarligida yoki rahbarliksiz) tashkil qilish mumkin. O'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilish turli xil shakllarda bo'lish mumkin. Bularga individual yoki guruh bo'yicha konsultatsiyalar, referatlar yozish, kollokviumlar o'tkazish, ishbilarmonlik o'yinlarni o'tkazish, ilmiy konferensiyalarga ma'ruzalar tayyorlash va boshqalar. Bu holda o'quvchi o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanlar bo'yicha dasturlar talabi asosida o'z bilimlarini oshirib boradi.

Ammo auditoriyadan tashqari (yakka holda) mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayondir. Chunki bu jarayonda o'quvchi mustaqil holda fanlar bo'yicha ilmiy va o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda o'z bilimini oshiradi. Demak, yakka holda mustaqil ishlashning samarali bo'lishi o'quvchining ilmiy kitoblar, qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar bilan ishlashni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga texnologik jarayonlarga oid muammolarning metodologik asosi, ilmiy kitoblar bilan ishlash yo'l-yo'riqlari, qarorlar, qonunlar maqsadi va boshqalar haqida yo'llanmalar berishlari maqsadga muvofiq. Ayniqsa o'quvchi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar, qarorlar, farmonlar bilan ishlashni yaxshi bilishlari ularni chuqur tahlil qila olishlari lozim. Bularda mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishi, maqsadi, texnika va texnologik muammolarning yechimi hamda ularning metodologik asoslari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yakka holda mustaqil ishlashni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchini ularni o'rganishga yo'naltirmog'i lozim.

Kasb-hunar ta'dimi bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, uni bosqichlar asosida rejalashtirish mumkin bo'ladi.

D mak, filtratsiya - bu pastga harakat qiladigan eritmaning yopishq qligi, tupr q k vakligi hamda k vaklarning eff ktiv diam tri bilan to'g'ri pr p rtsi nal b g'lanishda bo'lgan funktsiyadir.



Tupr qqa suv o`tkazuvchanligiga ko`ra bah b rishda N.A.Kachinskiy tasnifidan f ydalaniladi. Bunda tupr q quyidagi gruppalariga bo`linadi (yutilgan suv miqd ri millim tr his bida kuzatishning birinchi s ati uchun b rilgan):

juda yuq ri o 1000 o 500

juda ya shi - 500 - 100

ya shi-100-70

q niqarli o 70 o 30

q niqarsiz o 30 dan kam

**Qishloq xo`jalik fanlarini o`qitishda zamonaviy usullarni foydalanishni yanada takomillashtirish va joriy qilish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2015 yil 3 noyabrdagi "Qishloq va suv xo`jaligi tarmoqlarini oliy ma`lumotli yuqori malakali kadrlar bilan ta`minlashni yanada takomillashtirish chor-tadbirlari to`g`risida"gi 311-sonli qarorida korsatib o`tilgan.**

Biz laboratoriya sharoitida tuproqlarni suv o`tkazuvchanlik xususiyatlarini o`rganishni elektron qurilmalar yordamida organish bo`yicha izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgacha tuproqni elektr o`tkazuvchanligiga asoslangan holda tuproqni suv o`tkazuvchanligini aniqlash usullari bo`yicha birlamchi ma`lumotlar oldik. Olingan **fn`fnviy** usullarda oligan natijalar bilan qiyosiy o`rganimoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki tuproqlarning suv o`tkazuvchanlik xususiyatlarini chuqur o`rganish orqali tuproqlarni melirativ holatini yaxshilash ning samarali usullarini ishlab chiqish mumkin. Tuproq suv o`tkazuvchanlik xususiyatlarini kompyuter programmalari asosida aniqlash imkoniyatlari mavjud.

## **AL VA KHK O`QUVCHILARINING FIZIKA DARSLARIDAGI TEXNIK IJODKORLIGINI OSHIRISH**

**Xalloqova O.O.**

Buxoro yengil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji

O`quvchilarning fizika darslarida texnik ijodkorligini oshirish maqsadida, avvalo, ularning mustaqilligi, ya`ni bunda fikrlash faoliyatining xususiyatlarini o`yangilik, birdaniga topish, fahmlash, sezgirlik va hokazolaro muhim bo`lmasdan, shuningdek ijodga nisbatan stimuly (qiziqish, berilish, ishqibozlik, iroda, maqsadga erishish, yaratuvchanlik quvonchi, ruhlanish va h.k) ham muhim ahamiyatga ega.

Avval aniqlangandek, ijodiy aktivlik darajasi va davri bilan xarakterlanadi. Bu ikki komponent, shubhasiz, bir-biri bilan bog`langan. Lekin bu yerda shu narsa muhimki, bu komponentlar o`quvchining psixik faoliyatining ikki xil tomoniga bog`liq. O`quvchining ijod jarayonidagi aktivligi uning atrof muhitga munosabati bilan belgilanadi. Ijodiy jarayon davri esa faqat munosabat bilangina emas, shuningdek, shaxsning psixik xususiyatlariga hamda hal qilinadigan muammolarning ob`yektiv murakkabligiga bog`liq.

O`quvchida qiziqish har xil faktorlar: ota-onalar, do`stlari, kitob, kino, radio, televidiniya, muzey va hokazolar ta`sirida paydo bo`ladi. Shuning uchun ham ijod qilish uchun tabiiy sharoitga yaqin, to`da-to`kis sharoit yaratishga intilib, biz vaqt bo`yicha ham, mashg`ulot mavzusi bo`yicha ham dars qolipini kengaytirishga majbur bo`lamiz. Fakultativ, uy va to`garak mashg`ulotlari o`quvchilarning ilmiy-texnikaviy ijodkorligini yanada oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Darsdan tashqari mashg`ulotlarda o`quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish mobaynida ijodiy jarayonning muvafaqqiyatli borish sharoitini rivojlatirishga, ijodiy faoliyat mazmunining aktualligiga katta e`tibor berishga to`g`ri keladi. O`quv jarayonining bu tomonlari o`zaro bog`langan bo`lib, shu bilan birga mustaqil ma`noga ham ega.

Ijodiy faoliyatning mazmuni avvalo o`quvchiga vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida, politexnik ta`lim va kasbga yo`llash talablari bilan belgilaniladi. Bunda texnik ijodkorlikni rivojlantirishda fan-texnika taraqqiyoti yo`nalishlari: kosmonavtika, radioelektronika, hisoblash texnikasi bilan va ishlab chiqarishning asosiy qismi sanoat va qishloq xo`jaligi bilan aloqasi muhim ahamiyatga ega.

Texnik ijodkorlikning mazmuniga qo`yiladigan muhim talab, o`quvchilarning yosh xususiyatlariga va umumiy ta`lim bo`yicha ma`lumot darajasiga mos kelishidir. Mazmunga qo`yilgan bu talab, o`quvchilar qiziqishining rivojlanishi uchun kerak shartlardek zarur.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tahsil olayotgan yoshdagi o`quvchi yoshlar odatda bolaligidanoq radioga, aviatsiyaga, daryo va dengiz kemalariga, raketaga va texnikaning boshqa ko`rinishlariga qiziqadilar. Bu yoshda ilmiy-texnikaviy ijodkorlikning mazmuni tahsil olayotga ta`lim dargohining atrofidagi muhitga ham bog`liq. O`quvchilar o`zlari ko`rib yurgan mashinalarga o`xshash mashinalar: masalan, ekskavator, o`ziyurar kombayn, neft konining modeli kabi mashinalarni modellashtirishga qiziqadilar.

Yosh avlodni biror bir kasb egasi bo`lishga tayyorlash bilan birgalikda ularni texnik idrok etish, texnik shakllar yaratish, ya`ni texnik konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash zarur. Hozirgi kunda ishlab chiqarishga yetuk ijodkor mutuxassislarni tayyorlash, ularning texnik konstruktorlik bilim ko`nikmalarini va ijodkorlik xislatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilarini zamonaviy umumtexnik tayyorgarligida ularning fizik konstruktorlik bilim va malakalarini shakllantirish masalasi muhim hisoblanadi.

Xalq xo'jaligida fan va texnika yutuqlarining jadal sur'atlar bilan kirib kelishi, yuqori malakali ijodkor ishchilarning, ratsionalizator va muhandis-texnik xodimlarning kamyobligini ko'rsatmoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishida ishchi mehnatning mazmuni va uning xarakteri chizmalari o'qiy olish, konstruktiv-texnologik jarayonlarni idrok qila bilish va murakkab texnik masalalarni ijodiy yondashib yecha bilish kabi xususiyatlarni talab qilmoqda. Ma'dumki, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati konstruktorlik bilimlari va malakalari asosida yuzaga keladi. O'quv- konstruktorlik faoliyati muayyan ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash hisoblanib, zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida texnik konstruktorlik faoliyati mazmuniga diqqat-e'tiborni talab etadi.

Hozirgi zamon ishchisi- bu yangi tipdagi ishlab chiqarish xodimi, ishchi-bunyodkor, konstruktor-dizayner, yaratuvchi faoliyatning faol vakili. Bugunning ishchisi texnik-konstruktor darajasida fikrlaydigan, barcha ishlarning sifatli va unumdorligini ko'tarish uchun kurashadigan yaratuvchi, ratsionalizatoridir.

Texnik-konstruktorning ishi har qanday ishlab chiqarishning asosiy tarkibiy qismidir. Xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlarida konstruktor-dizaynerning ish faoliyatini o'rganib shunday xulosaga kelish mumkinki, texnik-konstruktorlar konstruksiyalashning yagona prinsipidan foydalanib, o'texnika tili o' bo'lmish chizmalar bilan o'Gaplashedilar o. Zamonaviy konstruksiyalashda grafik, geometrik va analitik usullar qo'llaniladi. Ishlab chiqarishning bir-biridan juda uzoq sohalari, masalan samolyotsozlik, kemasozlik, kiyim bichish-tikish kabi sohalarida ham yagona konstruksiyalash prinsipi o' loyihalashdan foydalanadilar.

O'quvchilarga texnik konstruksiyalash elementlariga doir bilim va ko'nikmalari mazmunini belgilash uchun hozirda korxonalaridagi ishchilar, ishchi-ixtirochilar mehnatning mazmunini tahlil qilish, ijodiy qobiliyatli ishchilarning kamol topishi jarayonini o'rganish zarur.

Konstruksiyalarning variantlari (o'xshashlari) bilan tanishish, ularning afzalligi hamda kamchiliklarini aniqlash, texnika bilan ishlashda muhandislikka, fan asoslariga doir bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni qo'llash hamda ishchilik mahoratini ishlab chiqarish ilg'orlarini yangi konstruktorlik masalalarini hal qilishga da'vat etadi. Bu esa ratsionalizatorlar va ixtirochilar mehnatida mavjud buyumlar bilan sinash ishlarining amalga oshirilishi, ularning yangi konstruksiyaga moslashtirish uchun harakat qilinishidir. Mavjud shakllar va ijodkorlik elementi sifatidagi amaliy ishlarni bajarishdir.

Uni bajaradigan konstruktor quyidagi usullardan foydalanadi:

1. Konstruktiv yechimlarning prototipini o'rganish;
2. Ob'ektlar va hodisalarning o'xshashligi yoki farqini aniqlash;
3. Tadqiq qilinayotgan ob'ektning ayrim nomuhim xossalari mavhumlashtirish;
4. Bir xil ob'ektlarning ba'zi xossalari boshqa xil ob'ektlarga ko'chirish imkonini beradigan taqqoslash metodidan foydalanadi;
5. Konstruksiyalar misollari (variantlar)ning afzalliklari kamchiliklarini tahlil qilish.

Konstruktorlik faoliyatida texnika taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlari, ya'ni standartlash (buyumlarni birxillashtirish) asosida ulardagi uzellar va detallarni birxillashtirish hamda ixtisoslashtirish, texnologik jarayonlarni tiplashtirish nazarda tutiladi.

Konstruktor faoliyati hisoblash, ashyolarni tanlash, shaklni konstruktiv va badiiy ishlash, moslamalarni konstruksiyalash va oldindan smeta tuzishdan iboratdir. Konstruktor ashyoning xossasini, texnologiyaning nozikligini, mashina ishlaydigan sharoitni va boshqa anchagina omillarni hisobga olishi lozim bo'ladi. Bu esa bilim, tajriba, tasavvur, ba'zan o'tkir farosatni talab qiladi. Konstruktor shaklni, detallarni to'g'ri tanlash, yana shakl badiiy talablarini hisobga olgan holda ishlashi haqida o'ylashi va buyumni tayyorlash arzon tushishini kuzatishi zarur. Ishlab chiqarishdagi har bir muhandis xodim (dizayner va konstruktor)lar:

1. Faoliyati konstruksiyalash bilan bog'liq har bir ishchi chizmalar va eskizlarni o'qishi hamda chizishi;
2. Talab qilingan shakl va o'lchamlardagi buyumni tayyorlash uchun kerakli ashyolarni shu buyumning ishlash sharoiti va tejamligini hisobga olib tanlashi;
3. Geometrik shakllarni va ularning konstruksiyasi mustahkam va bir xil bo'lishidagi ahamiyatini bilishi;
4. Detaillardagi konstruktiv elementlarning o'lchamlarini, ularning ishlanishi va qo'llanilishini tushunishi;
5. Buyumlardagi ma'dum tipdagi detallarni birlashtirish yo'llarini, ashyolarning xossalari bilan ularning ishlash usullari o'rtasidagi bog'lanishlarni bilishi.
6. Turli ma'dumotnoma, adabiyotlardan, standart va normalardan foydalana olish;
7. Buyumlarni rejalash, detallarning eskizlarini tuzish, texnologik jarayonlarni rejalashtirish va amalga oshirish kabi ishlarni uddalashi kerak.

Shu bilan birga konstruktorlik faoliyatining muvaffaqiyati kishining o'zi tayyorlagan texnika tarmog'ini qanchalik bilishiga bog'liqdir.

Shunday qilib, hozirgi ishlab chiqarishdagi ratsionalizator ishchi, konstruktor va dizaynerning faoliyati ijodiy jarayondir. Shu bilan birga konstruksiyani grafik tasvirlash, odatda konstruktorlik g'oyasini moddiy jihatdan amalga oshirishda birinchi bosqich bo'ladi. Bu hol material va mehnat sarfini tejab, konstruksiyalash jarayonini

tezlashtiradi. Modellar yasash ó konstruksiyani soddalashtirilgan va kichiklashtirilgan koʻrinishda yasash ham shu maqsad uchun xizmat qiladi. Modelni konstruksiyalashda modeli yasaladigan obʼyektning bir xil xossalari saqlashga harakat qilinadi va boshqalari hisobga olinmaydi. Qaysi xossa asosiy deb olinishiga qarab modeli yasalayotgan bitta obʼyektning oʻzini har xil konstruksiyadagi modellar deb qarash mumkin.

Masalan, maʼlum sharoitdagi modellarda fizikaviy tabiati oʻxshash boʻlgan hodisalarni oʻrganish mumkin va bir xil sharoitdagi tajribalarning natijalariga qarab boshqa sharoitda roʻy berayotgan hodisalar haqida fikr yuritish mumkin. Bu holda model yasash, fizikaviy kattaliklarning oʻlchamliligi nazariyasiga asoslanadi. Bunda fizikaviy kattaliklarning shunday oʻlchamsiz kombinatsiyalari topiladiki, modelda kuzatiladigan hodisalar haqiqiy hodisalarga aynan oʻxshash uchun ular teng boʻlishi kerak. Masalan, aero va gidrodinamik jarayonlarning modeli yasalganda, model uchun ham asl nusxa uchun ham Reynolds soni

$$Re = \frac{W_0 l}{\delta} \quad (2.1.1)$$

bir xil chiqishi kerak.

$W_0$  — sistemadagi gaz yoki suyuqlikni oʻrtacha tezligi;  $l$  — oʻsha elementni diametri, yoki plastinka uzunligi;  $\delta$  — oʻsha elementni diametri, yoki plastinka uzunligi;  $\nu$  — issiqlik tashuvchini kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti. **Reynolds** soni bu issiqlik tashuvchini gidromexanikaviy xossasini koʻrsatadigan son.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ish faoliyatida ilmiy- texnikaviy ijodkorligini tashkil sohasida katta tajriba toʻplangan. Konstruktorlik faoliyatining muayyanligi, uning tor doirasidagi detallar, uzellar, mexanizmlar yoki mashinalar bilan bogʻliqligi oʻquvchilarga fizika fani doirasida konstruktorlashni har xil badiiy-texnik yechimlar misolida oʻrgatishni talab qiladi.

Shunday qilib, hozirgi zamon ishlab chiqarishida texnik konstruktorlarning ish faoliyatini tahlil qilib, litsey va fizika kasb-taʼlimi jarayonida egallashi zarur boʻlgan badiiy va texnik konstruksiyalash elementlariga doir bilim va koʻnikmalar hajmi aniqlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. . . . . oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish. Toshkent-1978. oʻqituvchi oʻnashriyoti.180-240-bet.
2. Yosh fizik ensiklopedik lugʻat. Nazirov E. taxriri ostida.-T., 1988. 86-88 bet.

### HAYOTIY MAZMUNGA EGA BOʻLGAN SHE'RIY TOPISHMOQ TARZIDAGI MASALALAR-MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

**Panjiyeva M.**

Termiz davlat universiteti

Matematika va mantiqni bir ó biridan ayrim ó ayrim tasavvur qilish qiyin.

Chunki mantiqiy tafakkurning rivojlanishida matematika fanining roli va ahamiyati nihoyatda katta. U oʻquvchilarning mantiqiy tafakkurini oʻstirishga, oʻz fikrini qisqa, aniq, tartibli ifodalashga oʻrgatadi. Shuning uchun matematikani shunday oʻrgatish kerakki, u oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini bogʻlab qoʻymasdan, balki ularning tafakkurini oʻstirib borishni nazarda tutsin.

Bu esa oʻqituvchilarni oʻquvchilar tomonidan maʼlum bilim zahirasini egallashi bilan kifoyalanib qolmasdan, balki bu bilimni egallash davrida oʻquvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish va aqliy tafakkurini oʻstirish masalalariga alohida ahamiyat berishni talab qiladi.

Matematika darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchisining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy mazmundagi oʻquv topshiriqlaridan foydalanish oʻquvchining oʻquv-biluv va ijodiy faoliyatini oshiradi, boladan mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Muammoli vaziyat oʻquvchilarni oʻquv muammolarni hal qilishga jalb etish ó ularning mantiq qonunlarini egallashlari uchun ajoyib vositadir, chunki muammoli vaziyat yaratish, uni darsda hal qilish-oʻquvchilarni haqiqatdan ilmiy tadqiqot ishlariga tortishdir.

Oʻquvchilar oldiga qoʻyiladigan muammolar bitta yoki bir necha dars davomida hal qilinishi mumkin. Yangi atama kiritilishiga bogʻliq boʻlgan kichkina muammoli savollarga misollar keltiramiz:

-Nima uchun uchburchakka uchburchak deb nom berilgan? Unga oʻzining xossalari bilan bogʻliq boʻlgan boshqa nom qoʻyish mumkin edimi?

-oʻYoyiq burchak oʻ degan nomni qanday talqin qilish mumkin?

-Siz bir burchagi toʻgʻri burchak boʻlgan uchburchakni nima deb atagan boʻlar edingiz? (Savol oʻquvchilarni bu atama bilan tanishtirishdan oldin beriladi.)

Har bir muammo maʼlum mantiqiy bogʻlanishga asoslangan boʻladi. Bir necha eng soddamantiqiy masalalar keltiramiz.

1. Otasi va qizi birgalikda 62 yoshda. To'rt yil avval otasi qizidan sakkiz marta katta bo'lgan edi. Ularning har biri hozir necha yoshda?

2. Ahmad va Rahmat ko'p qavatli bir uyda yashashadi va bir litseyda o'qishadi. Ahmad litseyga 20 minutda, Rahmat esa 30 minutda boradi. Agar Rahmat Ahmaddan 5 minut oldin uydin chiqqan bo'lsa, Ahmad necha minutdan keyin unga yetib oladi.

3. Sinfda 20 o'quvchi bor. O'qituvchi ularga 225 dona daftar olib keldi. Har bir o'quvchiga 11 tadan daftar tegadimi? (masalani faraz qilish yo'li bilan va to'g'ri yo'l bilan ya'ni ikki usul bilan yechish mumkin.)

Bolalarga matematikadan ta'dim berish va boshlang'ich ta'dimdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri-bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalar matematik tushunchalarni rivojlantirish uchun pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fundamental fanlarda o'rganiladigan xususiyatlar va qonuniyatlarni bilishi kerak.

Tafakkurni, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi, hayotiy mazmunga ega bo'lgan sh'riy topishmoq tarzidagi masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va boshlang'ich ta'dimda boshlanadi.

Quyida boshlang'ich sinf matematika darslarida foydalanish mumkin bo'lgan sh'riy topishmoq tarzidagi masalalardan namunalar keltiramiz:

1. Ikki qizning qo'lidida

Ikkitadan guldasta,

Har dastaning ichida

Kamalak rang gullar bor.

Bitta qizning gullari

Bo'lsa agar o'n to'rtta.

Ikkiisini jam etsa,

Bo'ldur soni nechta?

2. Tog'ga chiqdi qirq bola,

To'rtidan biri qiz bola.

O'g'illarning har biri

Terdi o'ntadan lola.

Qizlar terdi yuz dona,

Ayt-chi qizim Hilola

Nechtadan jami lola?

3. Sinfimizda o'g'il 6 qiz,

Soni 6 kam o'rtiz.

Uchdan ikkisidir qiz

O'g'illarni aytingiz?

4. Ko'm-ko'k archa ostida yashil belanchak,

Belanchakda hayvonlar uchar xushchaqchaq.

1 ta kulrang bo'richa, 7 tulkicha,

6 quyon bolasi, 2 juft ayiq.

Hisoblang bolajonlar.

Hammasi bo'ladi qancha?

Har bir mustaqil yechilgan masala, tuzilgan masala va masalani yechish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni mustaqil yengishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA "MATEMATIKA" FANINI O'QITISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Ne'matova M.N.<sup>1</sup>, Xalloqova O.O.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Buxoro shahar 23-maktab,

<sup>2</sup>Buxoro yengil sanoat va pedagogika kolleji

Matematika so'zi qadimgi grekcha ó mathema so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir. Matematika fanining o'rganadigan narsasi (ob'ekti) materiyadagi mavjud narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iborat. Hozirgi davrda matematika fani shartli ravishda ikkiga ajraladi.

1) Elementar matematika, 2) Oliy matematika.

Elementar matematika ham mustaqil mazmunga ega bo'lgan fan bo'lib, u oliy matematikaning turli tarmoqlaridan, ya'ni nazariy arifmetikadan, sonlar nazariyasidan, oliy algebradan, matematik analizdan va geometriyaning mantiqiy kursidan olingan elementar ma'dumotlar asosiga qurilgandir.

Oliy matematika fani esa real olamning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni to'la hamda chuqur aks ettiruvchi matematik qonuniyatlarni toppish bilan shu qo'llanadi.

Elementar matematika fani maktab matematika kursining asosini tashkil qiladi. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar sistemasi ma'dum usulda (metodika) orqali o'quvchilarga etkaziladi. (Metodika so'zi grekcha so'z bo'lib, «yo'l» degan ma'noni beradi). Matematika metodikasi pedagogika va didaktika fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyoti darajasida ta'dim maqsadlariga mos keluvchi matematikani o'qitish, o'rganish qonuniyatlarini o'rganadigan mustaqil fandır. Matematika metodikasi ta'dim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan quyidagi uch savolga javob beradi:

1. Nima uchun matematikani o'rganish kerak?
2. Matematikadan nimalarni o'rganish kerak?
3. Matematikani qanday o'rganish kerak?

Matematika metodikasi haqidagi tushuncha birinchi bo'lib shveysariyalik pedagog o' matematik G.Pestalotsining 1803 yilda yozgan «Sonni ko'rgazmali o'rganish» asarida bayon qilingan. XVII asrning birinchi yarmidan boshlab matematika o'qitish metodikasiga doir masalalar bilan rus olimlaridan akademik S.E.Gurev (1760-1813), XVIII asrning birinchi va ikkinchi yarmidan esa N.I.Lobachevskiy (1792-1856), I.N.Ulyanov (1831-1886). L.N.Tolstoy (1828-1910) va atoqli metodist-matematik S.I.Shoxor-Trotskiy (1853-1923), A.N.Ostrogradskiy va boshqalar shug'ullandilar va ular matematika faniga ilmiy nuqtai-nazardan qarab, uning progressive asoslarini ishlab chiqdilar. Masalan, A.N.Ostrogradskiy «Ong kuzatishdan keyin paydo bo'ladi, ong real, mavjud olamga asoslangan» deb yozgan edi. Geometriya metodikasidan materiallar (Materiali po metodike geometrii, 1884 yil, 8-bet.). Keyinchalik matematika o'qitish metodikasining turli yo'nalishlari bilan N.A.Izvol'skiy, V.M.Bradis, S.E.Lyapin, I.K.Andronov, N.A.Glagoleva, I.Ya.Dempman, A.N.Barsukov, S.I.Novoselov, A.Ya.Xinchin, N.F.Chetveruxin, A.N.Kolmogorov, A.I.Markushevich, A.I.Fetisov va boshqalar shug'ullandilar.

1970 yildan boshlab maktab matematika kursining mazmuni yangi dastur asosida o'zgartirildi, natijada uni o'qitish metodikasi ham ishlab chiqildi.Hozirgi dastur asosida o'qitilayotgan maktab matematika fanining metodikasi bilan professorlardan V.M.Kolyagin, J.Ikromov, R.S.Cherkasov, P.M.Erdniev, N.G`aybullaev, T.To'laganov, A.Abduqodirov va boshqa metodist olimlar shug'ullanmoqdalar. Matematika o'qitish metodikasi pedagogika institutlarining III-IV kurslarida o'tiladi. U o'zining tuzilishi xususiyatiga ko'ra shartli ravishda uchga bo'linadi:

1. Matematika o'qitishning umumiy metodikasi. Bu bo'limda matematika fanining maqsadi, mazmuni, formasi, metodlari va uning vositalarining metodik sistemasi, pedagogika, psixologiya qonunlari hamda didaktik prinsiplar asosida ochib beriladi.

2. Matematika o'qitishning maxsus metodikasi. Bu bo'limda matematika o'qitish umumiy metodikasining qonun va qoidalarining aniq mavzu materiallariga tadbiiq qilish yo'llari ko'rsatiladi.

3. Matematika o'qitishning aniq metodikasi.

Bu bo'lim ikki qismdan iborat:

1. Umumiy metodikaning xususiy masalalari;
2. Maxsus metodikaning xususiy masalalari.

Masalan, VI sinfda matematika darslarini rejalashtirish va uni o'tkazish metodikasi deyilsa, bu umumiy metodikaning xususiy masalasi bo'lib hisoblanadi.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'dimiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'dimiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) O'quvchilarga ma'dum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'dumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish.

Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng soda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va

ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish koʻzda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa oʻquvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika oʻqitishning tarbiyaviy maqsadi oʻz oldiga quyidagilarni qoʻyadi:

a) Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu gʻoya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

b) Oʻquvchilarda matematikani oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Bizga maʼlumki, matematika darslarida oʻquvchilar oʻqishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga oʻrganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, soʻngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Matematika oʻqituvchisining vazifasi oʻquvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

v) Oʻquvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida oʻrganiladigan har bir matematik xulosa qatʼiylikni talab qiladi, bu esa oʻz navbatida juda koʻp matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. Oʻquvchilar ana shu qonuniyatlarini bosqichma-bosqich oʻrganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlarini shakllanadi. Oʻquvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi boʻlgan fikrlarni simvolik tilde toʻgʻri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilde ifoda qilingan matematik qonuniyatni oʻz ona tillarida ifoda qila olishlariga oʻrgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

3. Matematika oʻqitishning amaliy maqsadi oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻyadi:

a) Matematika kursida olingan nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tadbiq qila olishga oʻrgatish. Bunda, asosan, oʻquvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga bogʻlay olish imkoniyatlarini tarkib toptirish, ularda turli sonlar va matematik ifodalar ustida amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalarni hal qilishga oʻrgatiladi.

b) Matematikani oʻqitishda texnik vosita va koʻrgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda oʻquvchilarning matematika darslarida texnika vositalaridan, matematik koʻrgazmali qurollar, jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalari tarkib toptiriladi.

### **SINF DAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA OʻQUVCHILARNING MAʼNAVIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**Hayitova F.A., Davlatov N.**

Termiz davlat universiteti

Huquqiy demokratik jamiyat qurish yoʻlidan borayotgan mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillaridanoq, yoshlarning taʼlim-tarbiyasi, bilimli boʻlishi va ularning kelajakda jahon taʼlimi standartlari talablariga javob beradigan, rivojlangan davlatlarning yoshlari bilan qobiliyatlari va ilmiy iqtidori orqali bellasha oladigan avlod boʻlib yetishishiga katta ahamiyat berdi. Albatta, bunday buyuk maqsad, vazifalarni amalga oshirishda, umumtaʼlim maktablarida olib boriladigan darslar, amaliy ishlar muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalarning har qanday intilishlari, orzu-umidlari, niyatlari va talab-istaklarining yuzaga kelishi, eng avvalo, sinf mashgʻulotlari va sinfdan tashqari ishlar jarayonida shakllanadi.

Maktab, sinf xonalarida olib boriladigan darslar, amaliy mashgʻulotlar oʻzining taʼsirchanligi va hayotga aloqadorligi bilan qanchalik muhim boʻlmasin, baribir, u yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, komil inson darajasiga yetkazishda, taʼlim-tarbiyaviy ishlarining toʻliq vazifasini bajara olmaydi.

Sharqning mashhur allomasi Abu Rayhon Beruniy: oʻBizning maqsadimiz shogirdni toliqtirib qoʻymaslikdir. Hadeb bir narsani oʻqiy berish zerikarli boʻladi va toqatni oʻtoq qiladi. Agar shogird bir masaladan boshqa masalaga oʻtib tursa, u xuddi turli-tuman bogʻ-rogʻlarda sayr qilgandek boʻladi, bir bogʻdan oʻtmas, boshqa bogʻ boshlanadi. Kishi ularning hammasini koʻrishi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa rohat bagʻishlaydi, degan fikrlari katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham, Vatanimizda yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs darajasiga yetkazadigan komil inson tarbiyasi murakkab ish boʻlib, u davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan.

Prezidentimiz Islom Karimov bu haqida toʻxtalib: oʻBiz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb eʼlon qilganmiz. Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan oʻzgalarga ibrat boʻladigan bilimli, maʼrifatli kishilarni tushunamiz, oʻ degan edi. Umumtaʼlim maktablarida oʻquvchilarning maʼnaviy madaniyatini shakllantirish, taʼlim-tarbiya tizimining asosiy boʻgʻini dars bilan bir qatorda, oʻquvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil etish hamda oila muhiti va jamoatchilik oʻrtasida olib boriladigan madaniy-maʼrifiy tadbirlarning samaradorligini taʼminlashga ham bogʻliq. Shu nuqtai nazardan, biz sinfdan tashqari ishlar jarayonida, xalqimizning boy madaniy merosi vositasida, oʻquvchilarning maʼnaviy madaniyatini shakllantirishning samarali andozasini yaratishda quyidagilarga asosiy negiz sifatida tayandik: taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuv; falsafa, pedagogika,

etnografiya, tarix, estetika, ruhshunoslik, uslubshunoslik fanlariga hozirgi zamon talabi; jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yangilanish kontseptsiyasi; uzluksiz taʼlim tizimini milliyalashtirish, insonparvarlashtirish, taʼlim-tarbiya mazmuni, shakl va usullarini yangicha talablar asosida takomillashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish.

Maʼnaviy qadriyatlar asosida uyushtiriladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakl va usullari samaradorligi uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab belgilab olish bilan bogʻliq. Oʻquvchilarning maʼnaviy dunyoqarash va faoliyatini shakllantirishga yoʻnaltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati, u oʻquvchilarning kundalik hayotining tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻlishidir. Oʻquvchilar oʻquv ishlarining davomi sifatida, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadilar, turli mazmundagi maʼruzalar, suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadilar, tinglaydilar, oʻz maʼnaviy saviyalarini boyitib boradilar. Ikkinchi xususiyati, u taʼlim jarayonida bilim, malaka va koʻnikmalarni mustahkamlash, qoʻshimcha maʼlumotlar bilan boyitish, oʻquvchilarni maʼnaviy merosga qiziqishlarini oʻstirish maqsadida tashkil etiladi. Oʻquvchilar taʼlim jarayonida olinadigan bilimlarni takrorlamaydi, aksincha, ularning qiziqishi, xohishi, intilishi, tarbiyaviy ehtiyoji asosida, yangi mazmun, shakl va usullar bilan uyushtiriladi.

Maʼnaviy madaniyatni shakllantirishning asosi boʻlgan milliy ong va milliy gʻururni shakllantirishda, tarbiyaviy tadbir uchun material tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- oʻquvchilarning yoshi, ruhiy holatiga mosligi;
- oʻquvchilarning aqliy zakovati, hissiyoti, irodasi, maʼnaviy dunyosiga, amaliy faoliyatiga taʼsiri;
- oʻzligini anglashda oʻtmish boy madaniy-maʼrifiy meros dinamikasi haqida bilim, malaka va koʻnikmalarni shakllantirish imkoniyatlari;

- maʼnaviy, milliy qadriyatlarni tiklashdagi munosib oʻrni;

- oʻquvchilarning shaxsiy, hududiy imkoniyatlari va maktab sharoitiga mosligi;
- maʼnaviy madaniyatning barcha qirralarini oʻzlarida mujassam etish;
- dars jarayonida oʻrganilgan mavzuni mustahkamlash, toʻldirish, tarbiyaviy taʼsirchanligini oshirish, chuqurlashtirishga xizmat qilish.

Bu oʻrinda quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha tanlash ishlari amalga oshiriladi:

- a) dastur, darslikka kirmagan, lekin mustaqil oʻrganish uchun tavsiya etilgan manbalar;
- b) dastur materiallariga chuqurlashtirish uchun zarur va xarakterli boʻlgan qoʻshimcha maʼrifiy qadriyatlar;
- v) dastur materiallariga aloqasiz boʻlsa ham, lekin oʻquvchilarning umumiy saviyasini oʻstirish uchun xizmat qiladigan manbalar.

Maʼnaviy qadriyatlar asosida, oʻquvchilarning maʼnaviy madaniyatini shakllantirishga yoʻnaltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga rahbarlikni amalga oshirishda mutasaddilarning vazifalari quyidagilardan iboratdir: tarbiyaviy tadbir mavzusini bildirish; oʻquvchilarning tarbiyaviy tadbir gʻoyasiga munosabatini faollashtirish; tadbirni oʻtkazish va unga qoʻyilgan tarbiyaviy vazifalarning hal qilinishini ifodalovchi natijalarini yakunlash; oʻquvchilarning tadbir vaqtidagi hatti-harakatlarini, oʻzaro munosabatlarini baholash; oʻquvchilarda milliy ong, milliy gʻururni shakllantirishga erishish.

Muxtasar qilib aytganda, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida oʻquvchilarning maʼnaviy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish va ularni toʻplash, yoshlarning boʻsh vaqtlarini toʻgʻri tashkil etish, maʼnaviy boʻshliqni milliy madaniyatimiz sarchashmalari bilan toʻldirish, bugungi kunda muhimligi bilan alohida ahamiyatga ega.

## 1-SINFDA MUSTAQIL ISHLARDAN FOYDALANISH USULLARINING AHAMIYATI

**Hayitova F.A.**

Termiz davlat universiteti

*Farzandlarimiz bizdan koʻra kuchli, bilimli,  
dono va albatta, baxtli boʻlishlari shart.*

*I.A.Karimov*

Prezidentimiz I.Karimov oʻBarkamol avlod oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori nomli maʼruzasida taʼlim-tarbiya masalasiga alohida eʼtibor qaratib, quidagi fikrlarni bildirib oʻtgan: oʻTaʼlim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini loʻnda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab taʼlim-tarbiyasini koʻrgan shaxslar kerak. Bunda bitiruvchi deganda, albatta, maktab dasturida belgilangan bilimlarni egallagan shaxslar nazarda tutilmoqda. Bu Prezidentimizning quyidagi fikrida yaqqol ifodalangan: oʻAlbatta, bilim kerak. Mustaqil fikrlash katta boylik. oʻ

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urugʻlari kundan-kun oʻsib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni koʻrgisi keladi va tez orada bu orzularining roʻyobga chiqayotganligining guvohi boʻladi. Oʻyin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar oʻyinlari yosh

avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

Ilk maktab ostonasiga qadam qo'yg'an 1-sinf dars jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish o'quvchilarni faollikka, darsga, yangi narsalarni o'rganishga qiziqish, mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, xulosa chiqarish kabi sifatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatishlarimiz natijasida shu narsaga amin bo'ldikki, darslarni sifatini, o'quvchilarning faolligini oshirish boshlang'ich sinf o'qituvchisi uni qanday tashkil etishga bog'diq. Chunki, boshlang'ich sinfga ilk qadam qo'yg'an, beg'ubor bolalar o'yin faoliyatidan kelganligini hisobga olgan holda, turli o'yinli mashqlarni sekinlik bilan murakkablashtirib borish orqali ularni maktabning sinf o' dars tizimiga, asosiy e'tiborni yangi bilim olishga qartish kerakligiga vaziyat yaratishga qaratish kerak. Va yana mustaqil izlanishga o'rgatish bola maktabga kelgunga qadar shakllantirilgan bo'dishi lozimigiga amin bo'ddik. O'qish jarayonida esa o'quvchilar ma'dum matn mazmanuni o'zlashtirish, unda ishtirok etuvchilarni baholash asar tuzilishi va g'oyasini o'zlashtirish yuzasidan izlanishlar olib borishlari, olgan bilimlarini yanada mukammallashtirish ishlari talab etiladi.

1-sinfda tashkil etiladigan mustaqil ishlar sodda, rasmlar asosida ko'proq o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olib tashkil etish, mustaqil ishlarning murakkablik darajasi oshirib borish, o'quvchilarni mustaqil izlanishga o'rgatish uchun mo'ljallangan interaktiv metodlardan o'savol - javob, o'Klastero, o'yin texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishning kafolati hisoblanadi.

1-sinf o'qish darslari uchun tavsiya etiladigan mustaqil ishlar barchasi o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish qobiliyati, faoliyatlarini nazarda tutgan holda tanlab olinadi. Turli xil testlar, boshqotirma, krossvord, didaktik o'yinlar, rebuslar, texnik vositalar orqali tashkil qilingan mustaqil ishlar o'quvchilar qiziqishini yanada orttiradi.

Buning uchun dars jarayonlarida Multimediali umumta'dim dasturlarini rivojlantirish markazi tomonidan 1-sinflarning barcha fanlariga tayyorlanib, foydalanish uchun tavsiya etilgan multimediali darsliklardan ham foydalanish katta ahamiyatga ega.

1-sinfning o'Qqisho fanidan tayyorlangan multimediali darsligidan mustaqil ishlarni tashkil etishda foydalanish o'quvchilarning lug'at ishlari, to'g'ri talaffuz qilish, topqirlik sifatlarini rivojlantirishda yordam bermoqda. Chunki yosh bolalarga o'Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi o' da.

Natijalar juda yaxshi, chunki unga kiritilgan savol-topshiridalar, topishmoq va boshqotirmalar, video tasvirli topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, jonli ijrodagi torishmoqlar, multfilmlardan parcha, o'quvchilar tilidan berilgan savollar mustaqil ishlarni tashkil etishda muhim vosita bo'dadi.

O'atilgan mavzuga mos keladigan multfilmlardan lavha namoyish etish va muammoli vaziyat yaratish, o'Qahramon o'rnida siz bo'dsangiz nima qilgan bo'dardingiz?o savoli bilan murojaat etish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, nutqini o'stirishga muhim ahamiyatga ega.

Monitor orqali namoyish etilgan rasmlarga qarab to'rt o besh gapli matn tuzish, og'zaki hikoya tuzish, savol o javob o'kazish ish turlaridan foydalanish mumkin. Masalan: 1-sinf o'Qqisho kitobida o'Ilm o aql chirog'io bo'dimidagi o'Kompyuter o mavzusida tayyorlangan video tasvir, boshqotirma o'quvchilarni individual izlanishga chorlashi bilan, yangi bilimlarni o'zlashtirib, mustaqil fikrlashlariga ham zamin yaratadi.

Bundan tashqari, mustaqil ishlarni tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni faollik asosida o'zlashtirib olishiga qaratilgan. O'quvchi o'zi bajarib ko'rgan va amaliy mashg'ulotlardan keltirib chiqargan shaxsiy xulosalari orqali o'zlashtirib olgan bilimlarni mustahkam esda saqlab qoladi. Shu jihatdan qaraganda rebuslar o'quvchilarning bilim olishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Rebuslar o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga o'xshash va farqli hodisalarni bir-biriga chog'ashtirish, taqqoslab, muhimlarini ajratib olishga o'rgatadi. O'quvchi har bir so'z va uning elementar qismlariga e'tibor berishga o'rganadi. Rebuslarni bajarish orqali tovush o'zgarishlarining barcha turlarini: tovush tushishi, tovush almashinishi, tovush orttirilishini amalda bajarib ko'radi. Bu ularning fonetika va orfografiyaga oid qoidalarni o'zlashtirib olishlariga samarali yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bog'danishli nutqini o'stirish savod o'rgatish ishlari bilan birgalikda olib boriladigan jarayon bo'dib, o'quvchilarning bog'danishli nutqini, og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ishlar 1-sinf o'quvchilarining dars jarayonida faolligini oshiruvchi asosiy vosita bo'dib xizmat qiladi. Demak, 1-sinfdan boshlab mustaqil ishlardan foydalanish o'quvchilarning olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga, yangi bilim olishga intilishini oshirishga yordam beruvchi asosiy ta'lim berish turining ijodiy ko'rinishlaridan biri hisoblanar ekan.

## **IBN SINO MEROSINING YOSHLAR TARBIIYASIDAGI AHAMIYATI**

**Madaminova D., Allamova M.**

Xorazm VXQTUMOI

Mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatilib, ular qoldirgan boy madaniy va ma'naviy merosni o'rganish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Istiqloq yillarida xalqimizning ko'plab buyuk farzandlari nomlari bilan bog'liq



qadamjolar obod etildi, yangi yodgorlik majmualari qad rostladi. Yosh avlodni ajdodlarga munosib vorislar sifatida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, bu xayri ish davom etmoqda.

Jahon tarixida uygʻonish davri turli asr va bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Chunonchi, oʻrta asrlar uygʻonish davri ikki bosqichga boʻlinadi: ilk oʻrta asrlar Sharq uygʻonish davri va yevropa uygʻonish davri. Sharq uygʻonish davri yevropa uygʻonish davridan qariyb 550-600 yillar avvalroq boshlangan va jahon sivilizatsiyasiga betakror ilm-fan kashfiyotlarini hadya etgan. Bu borada Xorazmdagi Maʼmun akademiyasi ham alohida oʻrin tutganligi tarixdan maʼlum.

Alloma Xorazmda yashagan davrlarda Maʼmun akademiyasida koʻplab mashhur olimlar, ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy bilan yaqin ilmiy-ijodiy hamkorlik qilgan. Oʻzining dunyoga mashhur "Tib qonunlari" va "Ash-Shifo" asarlari uchun zarur maʼlumotlar toʻplagan.

Ibn Sino tibbiyot ilmi sohiblari bilan yaqin hamkorlikda boʻldi va oʻzining mashhur "Al-qonun fit-tibb" ("Tib qonunlari") asarining dastlabki kitoblarini qoʻgʻozga tushirishni Xorazmda boshladi. Ustozi Xammor maslahati bilan "Insonning yaratilishi va aʼzolarining tuzilishi", "Tutqanoq kasalligi haqida", "Qarilikda sogʻlom yashash haqida" kabi kitoblarini yozdi.

Oʻsha davrdagi mavjud siyosiy vaziyat buyuk vatandoshimiz boshiga koʻp sarson-sargardonliklar solgan. U Buxorodan Xorazmgacha, undan keyin Isfahon va Hamadon shaharlarida yashaydi. Ibn Sino yashagan davrni bugungi davr bilan taqqoslasak, yer bilan osmoncha farqni anglash mumkin. Shunga qarmay, ajdodlarimiz jahon ilmiga qoʻshgan hissasini soʻz bilan taʼriflashga til ojiz, ulkan sabr-toqat, matonat, jasorat tarbiyasining betakror namunasi.

Ibn Sino faoliyati bilan shugʻullangan olimlar uning har lahzadan unumli foydalanganini alohida taʼkidlaydilar. Darhaqiqat, inson 57 yillik hayoti davomida 450 dan ortiq asar yozib, ilm-fanning koʻplab sohalarida oʻchmas iz qoldirishi oson emas. Bu hozirgi davrda talabalarimizga vaqtning qadriga yetish, undan unumli foydalanish, bobolarimiz qoldirgan ulkan maʼnaviy va moddiy merosga munosib voris boʻlish bilan birgalikda yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlar yaratishga undaydi.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari dunyo mamlakatlarida hamon tabobat sohasidagi muhim qoʻllanma sifatida oʻqib-oʻrganib kelinishi bugungu yoshlarimizga gʻurur tuygʻusi bilan ajdodlar ishini davom ettirish maʼsuliyatini ham yuklaydi.

Prezidentimizning oʻz tarixini bilmaydigan, k chagi kunini unutgan millatning k lajagi yoʻqoʻ fikrlari yosh avlod har qaysi sohada ajdodlariga munosib voris boʻlib boʻlishlariga dasturui amal hisoblanadi.

Bilimsiz kishilar johil boʻladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk boʻlmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini taʼkidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega boʻlish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson oʻz bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning taʼlim metodlari haqidagi taʼlimoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan gʻoya yotadi.

Bilim olishda bolalarni maktabda oʻqitish zarurligini qayd etar ekan, taʼlimda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini taʼkidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qoʻymaslik;
- taʼlimda yengildan ogʻirga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos boʻlishi;
- oʻqitishda jamoa boʻlib maktabda oʻqitishga eʼtibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- oʻqitishni jismoniy mashqlar bilan qoʻshib olib boʻrish.

Bu talablar hozirgi davr taʼlim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga oʻzining «Tadbiri manzil» asarida maxsus boʻlim bagʻishlaydi. «Bolani maktabda oʻqitish va tarbiyalash» («Omoʻzish va parvarish madrasa farzand») boʻlimida taʼlim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish oʻqituvchining maʼsuliyatli burchidir. Shunga koʻra ibn Sino oʻqituvchining qanday boʻlishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yoʻl-yoʻriqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy boʻlish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday oʻzlashtirib olayotganiga eʼtibor berishi;
- taʼlimda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabalning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtirish olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir soʻzning bolalar hissiyatini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi zarur, deydi olim

Bir soʻz bilan aytganda, Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati, ilm-fan va madaniyat sohasida tutgan oʻrnini oʻrganishga bagʻishlangan tadbirlar, seminarlar, kechalar, ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Zero, buyuk vatandoshimiz qoldirgan ulkan va bebaho maʼnaviy merosni teran tadqiq va targʻib etish zamonaviy tibbiyot rivojini yangi bosqichga koʻtarish bilan birga yosh avlodni sogʻlom turmush tarziga oshno boʻlishga ham oʻrgatadi.

## AKADEMIK LITSEY VA KHK OʻQUVCHILARIDA MUSTAQIL IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI ILMIY-TADQIQOT ISHLARIGA JALB ETISH

**Rashidov A.Sh., Mardonov F.N.**

Buxoro davlat universiteti AL va KHK


Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablaridan biri oʻquvchirga mustaqil va ijodiy fikrlarni doimiy ravishda rivojlantirish hisoblanadi.

Mustaqil fikr yuritish har bir shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun akademik litsey va kasb-hunar kollejlari auditoriyalarida dars berishning barcha shakllari: nazariy, amaliy, laboratoriya darslari, amaliyotlar, darsdan tashqari ishlar, ilmiy-tadqiqot ishlarida oʻquvchirning mustaqil fikr yuritish koʻnikmalari tarkib topadi va u (ilmiy rahbar, murabbiy tomonidan) rivojlantirilib borilishi muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil ravishda fikr yuritilgan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish tajribalarining koʻrsatishicha quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi.

1. Oʻz sohasi boʻyicha muammoli vaziyatni tushungan holda tahlil qilish;
2. Oʻqish jarayonida olgan nazariy farazlarni ilgari surish;
3. Auditoriyada oʻzlashtirilgan bilim va malakalarni yangi vaziyatlarda qoʻllab, yangi bilim, koʻnikma va malakalarni egallash;
4. Oʻz fikr va bilimlari asosida tanlangan yoʻnalish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;
5. Ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari asosida maqolalar tayyorlash, tahlil qilish va natijalarini izohlash;
6. Ilmiy-tadqiqot ishlardan olingan natijalarni oʻsha soha boʻyicha qoʻllash.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarining oʻz ustlarida mustaqil ishlashlari, taqqiqot ishlarini olib borishlari uchun adabiyotlardan, ilmiy jurnallardan foydalanish, ilmiy-amaliy anjumanlarda, seminarlarda ishtirok etish muhimligi tajribalarda sinab koʻrildi va ijobiy natijalar berdi.



### Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tadqiqot ishlarini olib borish.

Ilmiy tadqiqot ishlarini zamon va davr talabi asosida yoʻlga qoʻyish uchun talaba oʻ yoshlar orasida iqtidorli oʻquvchirni tanlab, ularga ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratib, tadqiqot ishlariga jalb qilish orqali koʻzda tutilgan natijalarga erishiladi.

Talabaning mutaxassislik yoʻnalishi boʻyicha tanlangan ilmiy tadqiqot ishining mavzusi taʼdimning oʻrta maxsus, bakalavriyat, magistratura, aspirantura bosqichlarida ketma-ketlik bilan kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ish, magistrlik ishi, nomzodlik ishi tariqasida himoya qilinsa, ish natijalari ishlab chiqarishda qoʻllanilsa, ilmiy-tadqiqot ishidan koʻzlangan maqsadga erishiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqarish bilan bogʻliq holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayoni murakkab va koʻp qirrali boʻlganligi uchun akademik listey va kasb-hunar kollejlarda talaba yoshlar bilan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqoridagi bosqichlar asosida yoʻlga qoʻyish, muvaffaqiyatlarga erishish omilidir.

1. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining fizika darslarida turli koʻrinishdagi masalalarni yechish tartibi turlicha boʻladi. Shuning uchun masalani yechishni uni diqqat bilan oʻqishdan va shartlarini aniqlashdan boshlash kerak. Soʻng masala shartlarini varaqning chap tomoniga birin-ketin yozib bir xil birlikka (odatta SI birligiga) keltirib qoʻyish kerak.

